



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

«Tasdiqlayman»
Boshlang'ich ta'lim
pedagogikasi fakulteti dekani
_____ t.f.n.dotsent Rabbimov M.
«_____» _____ 2012 yil

«Tasdiqlayman»
Institut o'quv ishlari
bo'yicha prorektor
_____ prof.Alimov N
«_____» _____ 2012 yil

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASI FAKULTETI**

Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti kafedrası

ONA TILI fanidan

MA'RUZALAR MATNI

5111700 – Boshlang'ich ta'lim va tarbiyaviy ish bakalavr
ta'lim yo'nalishi IV kurs talabalari uchun

**Tuzuvchi: Jumanazarov U.
Xadjimusayeva Nilufar**

JIZZAX–2014-15

1-Mavzu: Qo'shma gap.

REJA:

1. Qo'shma gap haqida tushuncha. Qo'shma gap tahlili va tasnifi.
2. Bog'langan qo'shma gap haqida tushuncha.
- 3 Bog'langan qo'shma gap komponentlarini biriktiruvchi vositalar
4. Bog'langan qo'shma gap qismlarining o'zaro mazmuniy munosabatlari

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar:

Qo'shma gap. Qo'shma gap komponentlari (qismlari) grammatik munosabat, mazmuniy munosabat, intonasion birlik, yakunlovchi intonasiya (ohang), kommunikativ funksiya, predikativ qo'shilmalar miqdori, sodda gapning tuzilishi, qo'shma gapning tuzilishi, qo'shma gap tahlili, qo'shma gap tasnifi.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Qo'shma gap haqidagi qoidani aytib bera oladi.
2. Qo'shma gapni soda gaplardan ajrata oladi.
3. Qo'shma gapning qismlarini va ularning grammatik mazmun jihatidan bajarilishini izohlab bera oladi.
4. Qo'shma gapni tahlil qila oladi.

1-Reja bayoni:

Tilda qo'shma gap modelining mavjudligi ham sodda gap kabi nutqning tabiiy talabidir. Fikr ifodalash, nutq tuzish uchun gapning sodda shakli qanday zarur bo'lsa, qo'shma gap shakli ham shunday zarurdir. Biroq bu nutqiy birliklarning har ikkalasi kommunikativ funktsiya ifodalashdan qat'iy nazar, mazmun va tuzilishi jihatidan farqli hodisalardir.

Qo'shma gap tuzish uchun, birinchidan, kamida ikkita sodda gap bo'lishi, ikkinchidan, bu sodda gaplar mazmunan munosabatga kirishgan bo'lishi kerak.

Hamal kirdi – amal kirdi (maqol)

Sen kelmasang bo'lmaydi bahor (H.O).

Demak, qo'shma gaplar mazmunan mos kelmaydigan har qanday gaplarning yonma-yon qo'yilishidan yuzaga kelmaydi. Havo qirq daraja issiq, qo'ylar sovuqdan qirilmoqda. Bu yil yomqir mo'l yoqqanligi uchun, ekinlar qurib ketdi, deb bo'lmaydi, albatta.

Uchinchidan, qo'shma gaplar birdan ortiq sodda gaplarning ma'lum grammatik aloqaga kirishidan tuziladi. Bunday qo'shma gapning bog'langan, bog'lovchisiz, ergash gapli, turlari shakllanadi (Yuqoridagi misollarga qarang).

To'rtinchidan, yonma-yon kelgan birdan ortiq sodda gaplar mazmunan bir-biriga bog'langan taqdirda ham, yaxlit, umumiy birlashtiruvchi intonatsiyaga ega bo'lmasa, qo'shma gap shakllanmagan bo'ladi. qiyoslaylik:

Bahor keldi. Dalalar ko'm-ko'k. (alohida sodda gaplar)

Bahor keldi, dalalar ko'm-ko'k. (qo'shma gap).

Keyingi holatda gaplar orasida nisbiy tugallangan intonatsiya bo'lib, birinchi gapning mazmunini ikkinchi gapning mazmuni orqali tasdiqlash bor.

Demak, qo'shma gapning shakllanishidagi yana bir muhim belgi birlashtiruvchi intonatsiyadir.

Yuqoridagilardan qo'shma gapning quyidagicha ta'rifi kelib chiqadi: ikki va undan ortiq sodda gaplarning (yoki komponentlarning) mazmun va grammatik munosabatidan tashkil topgan, bir butun birlashtiruvchi, yakunlovchi intonatsiyaga ega bo'lgan sintaktik konstruktsiyalar qo'shma gap deyiladi.

Qo'shma gap tarkibi qanchalik yoyiq – murakkab bo'lmasin, unda komponentlarning tugallanganligini ko'rsatadigan yakunlovchi intonatsiya mavjud bo'ladi:

Urug' yer ostida yotsa, hech kim u bilan qiziqmaydi, u qachon tuproqni yorib, yerni zumrad kabi bezasa, uning nima ekanligi ma'lum bo'ladi, so'ngra parvarish qilib, uni o'stiradilar. (Q.D.)

Nazorat topshiriqlari:

1. Qo'shma gapning ta'rifini ayting.
2. Qo'shma gap qismlarining o'zaro mazmuniy munosabatini izohlang.
3. Qo'shma gap qismlarining o'zaro grammatik munosabatini izohlang.
4. Qo'shma gap qismlarining birlashtiruvchi umumiy intonasiya (ohang) haqida so'zlab bering.

Nazorat savollari:

1. Qo'shma gap tahlilida ketma-ketlikni ayting.
2. Predikativ asoslar miqdorini belgilash nimaga asoslanadi.
3. Nisbiy tugallangan fikr nimaq.
4. Nisbiy tugallangan intonasiya nimaq
5. Mazmun va grammatik munosabat haqida so'zlab bering.
6. Yaxlit tugullangan intonasiya nimaq

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar:

Bog'langan qo'shma gap, bog'langan qo'shma gap komponentlari, biriktiruv munosabati, ayiruv munosabati, zidlash munosabati, qiyoslash munosabati, izohlash munosabati, inkor munosabati.

1-reja bo'yicha dars maqsadi: Talabalarga bog'langan qo'shma gaplar, ularning tuzilishi, mazmuniy munosabatiga ko'ra turlari haqida tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Bog'langan qo'shma gap haqida qoidani yaxshi biladi va bunday qo'shma gaplarni matnda aniqlay oladi.
2. Bog'langan qo'shma gaplarni mustaqil tuza oladi va ularni nutqda to'g'ri qo'llay oladi.
3. Bog'langan qo'shma gapning qo'shma gapning boshqa turlaridan farqli belgilarini aytib bera oladi.

2-reja bayoni

Bog'langan qo'shma gaplar shaklan-grammatik jihatdan mustaqil komponentlar sodda gaplardan tashkil topadi.

Bunday qo'shma gaplarda sodda gaplarning o'zaro bog'liqligi ularning strukturasi (qurilishi) kesimlarining semantik, grammatik munosabatida ko'zga tashlanib turadi. Shuning uchun ham bog'langan qo'shma gap, qancha sodda gaplardan tashkil topmasin, yaxlit bir konstruksiyani tashkil etadi.

Bog'langan qo'shma gaplar, bog'lovchisiz qo'shma gaplardan farqli holda, yopiq konstruksiyani tashkil etadi, ya'ni uni boshqa sodda gaplar yordamida kengaytirib, davom ettirib bo'lmaydi: Tantiboyvachchaning nafasi ichiga tushib ketdi, biroq u uyalgan kabi o'zini bilmaslikka soldi.

Bog'langan qo'shma gap: Bahor keldi, gullar ochildi... Bahor keldi, gullar ochildi, qushlar yana o'zining sevimli maskanlarigi qaytib kela boshladilar.

Bog'langan qo'shma gaplar: Urushdan faqat boylar manfaat topadi, ammo kambag'allar xonavayron bo'ladi. (M. Ibragimov).

Mayli, siz keting bu mahalladan, yoki biz ko'chib ketamiz. (A.Qahhor) Na bir yo'l biluvchi odam bor, na bir yo'l yorituvchi mash'al (Kalila va Dimna)

Nazorat topshiriqlari:

1. Bog'langan qo'shma gap qoidasini ayting.
2. Bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lashda, nimalarning roli ayniqsa katta.
3. Bog'langan qo'shma gapning bog'lovchisiz qo'shma gaplardan farqini ayting.

4. Bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lashda bog'lovchilar o'rnida yana qanday so'zlar ishlatiladi?

3-reja bo'yicha dars maqsadlari:

Talabalarni bog'langan qo'shma gap komponentlarini biriktiruvchi vositalar bilan tanishtirish, ularni nutqda qo'llash ko'nikmalarini talabalarda shakllantirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Bog'langan qo'shma gap qismlarini biriktiruvchi vositalarni yaxshi biladi, ularni sanab bera oladi.
2. Bog'langan qo'shma gap qismlarini biriktiruvchi vositalarni nutqda to'g'ri qo'llay oladi.
3. Bog'langan qo'shma gap qismlarini bo'glash uchun xizmat qiladigan teng bog'lovchilar va ular o'rnida qo'llaniluvchi yuklamalarni farqlay oladi.

3-reja bayoni

Bog'langan qo'shma gap qismlarini bo'glash uchun asosan teng bog'lovchilar qo'llaniladi. Teng bog'lovchilar o'z navbatida qo'shma gap qismlari orasida qanday munosabat ifodalashiga ko'ra:

1. Biriktiruvchi bog'lovchilar: Va, hamda, (Ular o'rnida qo'llaniluvchi –u, -yu, -da, ham) yuklamalari
2. Zidlovchi bog'lovchilar: Ammo, lekin, biroq, balki, holbuki, faqat (Ular o'rnida qo'llaniluvchi – u, -yu,) yuklamalari
3. Ayiruvchi bog'lovchilar: yo, (yo..., yo) yoki (yoki...yoki), yoxud, yoyinki, goh..., goh, bir ..., bir, dam ..., dam, ham ..., ham, xoh ... xoh, ba'zan ... ba'zan
4. Bo'lsa, esa so'zlari. Masalan:
 1. Har tomondan esadi yellar va bog'larda qushlar chiyillar.
 2. O'rmonjon qariyalar bilan o'tkazgan bir suhbatida allanimadan gap chiqdi-yu, kimdir yer islohotidan burun bo'lgan daryo toshqini haqida gapirdi.
 3. Shunday qishloqni ko'rsam degan orzuingiz yaxshi, lekin shu qishloqni bunyodga keltirishda qatnashsangiz, undan ham yaxshiroq bo'lar edi.
 4. Ham ishim to'g'irlanib ketdi, ham yerim o'zimga qoldi.

Nazorat topshiriqlari.

1. Bog'langan qo'shma gap qismlarini bo'glash uchun xizmat qiladigan teng bog'lovchilarni sanab bering.
 1. Bog'langan qo'shma gap qismlarini bo'glash uchun xizmat qiladigan teng bog'lovchilar o'rnida qo'llaniladigan so'zlarni ayting.
 2. Bo'lsa, esa so'zlari bog'langan qo'shma gap qismlari o'rtasidagi qanday munosabatlarni ifodalaydi?
 3. Bog'langan qo'shma gap qismlarini bo'glash uchun xizmat qiladigan bog'lovchilardan oldin yozuvda vergul qo'yiladi?
 4. Bog'langan qo'shma gap qismlarini bo'glash uchun xizmat qiladigan bog'lovchilardan keyin yozuvda vergul qo'yiladi?

4- reja bo'yicha dars maqsadlari:

Talabalarga bog'langan qo'shma gap qismlarining o'zaro mazmuniy munosabatlari haqida tushuncha berish, ular o'rtasidagi mazmuniy munosabatlarni to'g'ri anglagan holda Grammatik va mazmuniy jihatdan to'g'ri tuzilgan bog'langan qo'shma gaplar tuzish va nutqda to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Bog'langan qo'shma gap qismlari o'rtasidagi mazmuniy munosabatlar turlarini ajrata biladi.
2. Turli xil mazmuniy munosabatlarni ifodalash uchun qo'llanadigan grammatik vositalarni biladi va izohlab bera oladi.
3. Turli xil mazmuniy munosabatlarni ifodalovchi qo'shma gaplarni mustaqil tuza oladi va ulardan nutqda o'rinli foydalana biladi.

4- reja bayoni. Bog'langan qo'shma gap qismlari biriktiruvchi bog'lovchilar yoki ularning funksiyasini bajaruvchi yuklamalar yordamida aoloqaga kirganda , ma'lum bir paytda yoki ketma-ket yuzaga chiqadigan harakat-holatlar birlashtiriladi va bu bilan uyushgan qismlar hosil qilinadi.

1. Qo'shma gap komponentlarida harakat-holat bir paytda yuzaga chiqadi:

Masalan: Chorpoyaning berigi yonida qarigan Abdurahmonboy va ikki katta o'g'li o'tirar va bularning ro'paralarida tuman boylaridan bir necha kishi o'tirar edi. (S.Ayniy.).Haftalar o'tdi ham tugaldi savdo (Oybek).

2. Harakat-holat ketma-ket yuzaga chiqadi: Chiroq o'ngga qayrilib g'oyib bo'ladi-yu , hayal o'tmay yaqinroqdan ko'zni hamashtiradigan yog'du sohib chiqdi va bosinqi motor tovushi eshitildi (A.Qahhor).

II. AYIRUV MUNOSABATI.

Bog'langan qo'shma gaplarning ayrim turlarida qismlaridan anglashilgan voqea-hodisa yoki harakat-holatlarining biri ro'y berib, ikkinchisi ro'y bermaydi va ular galma-gal ro'y beradi. Bunday qo'shma gaplar ayiruv munosabatini ifodalovchi qo'shma gaplar deyiladi. Qo'shma gap qismlari umumiy bir fikrni, niyatni ifodalash uchun xizmat qiladi, shu umumiy bu fikrning elementlari hisoblanadi. Ayiruv munosabatini ifodalagan bog'langan qo'shma gaplarning komponentlari o'zaro ayiruvchi bog'lovchilar yordamida birikadi.

Masalan: Ilgari ham kunlar shunday qizirmidi yo bu yil yoz issiqroqmi. (Oybek).

Bo'yingizga bo'ldim xumor

Yo siz keling, yo men boray (Folklor).

Yoki yer yomonmi urug' yomonmi

Yo bo'lmasa ayb havodami (G'.G'ulom).

Dam jahlim chiqadi, dam kulgim qistaydi (Oybek).

III. SABAB – NATIJA MUNOSABATI.

Bog'langan qo'shma gap qismlarining biridan anglashilgan mazmun ikkinchisining ro'y berishiga sabab bo'ladi:

Masalan: Anor so'zlar va Zaynab qalbi,

Tol bargiday dir-dir qaltirar. (H.Olimjon.)

Bu qo'shma gapning ikkinchi qismi (Zaynab qalbining titrashi, qaltirashi) birinchi qismdan anglashilgan harakatning (anorning so'zlashishining) natijasidir.

Qiz yalt etib Jamolga qaradi-yu, yuragi hovlib ketdi (H.Olimjon).

Hamxonada qashshoqlik kuldi,

Va oila tutday to'kildi (H.Olimjon).

IV . ZIDLASH (QIYOSLASH MUNOSABATI).

Qo'shma gap qismlaridan anglashilgan harakat-holat bir-biriga zid qo'yilishi, qiyoslanishi mumkin. Bundan maqsad shuki, qismlardan anglashilgan belgi-xususiyatlarini bir-biriga zid qo'yish, ular orasidagi farqni ko'rsatish, bir-biriga nomuvofiq ekanini ko'rsatishdir. Qo'shma gap komponentlari o'zaro zidlovchi bog'lovchilar yordamida bog'lanadi:

Masalan: Tovoqlar bo'shadi, lekin so'fi «savob» bo'ladi deb, dasturxonga to'kilgan guruchlarni og'ziga solmoqda edi (S.Ayniy).

Xolmurod bilan ko'p gaplashgusi kelar, lekin iloji bo'lmas edi. (P.Tursun).

Qiyoslash munosabati «bo'lsa», «esa» bog'lovchilari yordamida ham yuzaga chiqishi mumkin:

Masalan: Kozimbek qilmishidan xijolat, Said a esa undan bir og'iz so'z kutar edi (A.Qahhor).

Sen shu ishni qilsang, boydan qutulasan, men bo'lsam, o'z maqsadimga yetaman. (Hamza).

V. IZOHLASH MUNOSABATI.

Bog'langan qo'shma gaplarning ba'zilarida komponentlarning biri ikkinchisining mazmuniga izoh bo'ladi, uni to'ldiradi. Komponentlar biri ikkinchisiga umumiy izoh bo'lishi, yoki biror bo'lakning ma'nosini aniqlashi, to'ldirishi mumkin:

Masalan: Mulla Hakim, bir nozik ish bor. Lekin xayrli ish.

(Oybek.)

Ertasiga ham ovchilar qaytmadilar va bu hol qishloq aholisini tashvishga soldi. Boyni zulmi borgan sari ortdi va bu hol esa xalqning g'azabini yanada kuchaytirdi.

Bog'langan qo'shma gap komponentlari ba'zan teng bog'lovchilarning yonma-yon kelishi natijasida ham bog'lanishi mumkin:

Masalan: Hamon chopib borar

Va lekin ko'kragi qon. (H.Olimjon.)

Og'zaki nutqda «ammo», «lekin» bog'lovchisi ham faol qo'llanadi.

Nazorat savollari:

1. Bog'langan qo'shma gaplarning mazmun turlari haqida gapirib bering.
2. Biriktiruvchi munosabatli bog'langan qo'shma gapga ta'rif bering.
3. Zidlov munosabatli bog'langan qo'shma gapga ta'rif bering.
4. Ayirish munosabatli bog'langan qo'shma gapga ta'rif bering.
5. Qiyoslash munosabatli bog'langan qo'shma gapga ta'rif bering.

Inkor munosabatli bog'langan qo'shma gapga ta'rif bering.

1-mavzu bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari.

Qo'shma gap yuzasidan tahlil.

Matndagi qo'shma gaplarni topish, ularning necha qismdan iboratligini ko'rsatish. (4 soat)

Xalqni biror g'oyaga sajda qildirish mumkin, mabodo u yurakdan o'rin olmasa, o'ziga tortmasa, odamlar yuz, hatto ming yildan keyin ham undan yuz o'giradilar. Tilni ham ana shunday zo'ravonliklardan xoli jabhalardan deb bilaman. Ichki qonuniyat degan tushuncha bor, balki uni kashf qilish oson emasdir, uni faqat qabul qilish kerakdir. Tildagi ichki qonuniyat esa o'ta nozik va sirli. Biz arab tilini bilmaymiz, biroq Qur'oni karim oyatlarini tinglaganda soli bo'lib qolamiz, brlig'imiz sel bo'lib oqadi. Balki Oллоhdan nozil bo'lgan, Qur'oni Karim oyatlaridagi tovushlar shunday joylashtirilgandirki, talaffuz qilinganda, ilohiy bir musiqaga aylanib, qalbimiz gumbazlarida sado berar va bizni sehrlar. Ona tilimizda paydo bo'layotgan har bir so'zda ham ana shunday jozibaning, hech bo'lmaganda o'ndan biri jamlanishi kerak (Hakim Sattorov).

1. Bog'langan qo'shma gaplar bo'yicha qo'shimcha adabiyotlarni o'qib, fikr bildirish. (2 soat).
2. Matndagi bog'langan qo'shma gaplarning qismlarini bog'lovchi vositalarni ko'rsatish, qo'shma gaplarning qismlari o'zaro munosabati haqida bayon qilish (2 soat).
1. Ishim to'g'irlanib ketdi, ham yerim o'zimga qoldi.
2. Men qo'nishga tayyor edim-u, biroq bu yosh vrachning harbiy formasi meni taraddudga solib qo'ydi.
3. Hamon chopib boradi va lekin ko'kragi qon.
4. Yo podsho biror yerga chiqadi, yo elchi kelishi kutiladi.
5. Nuri goh sevinib, goh shirin xayollarga botadi, goh butun vujudini qo'rquv bosadi.
6. Yarim soat o'tar-o'tmas oradagi begonalik pardasi ko'tarildi-yu, Siddiqjon sarguzashtini qisqacha so'zlab berdi.
7. Oyda dog' bo'lsa bo'lar, ammo biz bilan sizda dog' bo'lmasin.

Menda xalqqa xizmat qilish orzusi katta-yu, biroq qarilik qurg'ur goh-goh sezilib qolyapti.

Adabiyotlar.

1. Abdurahmonov G'. Qoshma gap sintaksisi asoslari. T., «Fan», 1958 y.
2. Mirzayev M. Hozirgi zamon o'zbek tili. Mashqlar to'plami. T., 1965 y.
3. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2-kitob. Sintaksis. T., 1966 y.
4. Abdurahmonov G', Suloymonov H., Xoliyorov H., Omonturdiyev J. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. 1979 y.
5. G'ulomov A.G', Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1987 y.

6. Mamajonov A. Qo'shma gap stilistikasi. T., «Fan», 1990 y
7. Nurmonov A., Mahmudov N. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. T., 1995 y. 8. O'zbek tili grammatikasi. II tom. Sintaksis. T., 1976 y.
9. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixojayev S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. T., "Fan". 1992 y.
10. Gulomov A.G., Asqarova M. Hozirgi ozbek adabiy tili. T., 1987 y.

2- mavzu: Ergash gapli qo'shma gaplar va ularning turlari

Reja:

1. Ergash gapli qo'shma gaplar haqida umumiy ma'lumot berish.
2. Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi grammatik vositalar. Ergash gapli qo'shma gaplarning turlarga ajratish tamoyillari.
3. Ega ergash gap, kesim ergash gap, to'ldiruvchi ergash gap. Aniqlovchi ergash gap, ravish ergash gap, daraja-miqdor ergash gap, chog'ishtirish-o'xshatish ergash gap Sabab, maqsad ergash gapli qo'shma gaplar. Payt, o'rin, shart ergash gapli qo'shma gaplar.

To'siqsiz, natija ergash gapli qo'shma gaplar

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar.

Ergash gapli qo'shma gaplar, bosh gap, ergash gap, tobe-hokim munosabati, grammatik vositalar, ergashtiruvchi bog'lovchilar, bog'lovchi o'rnida qo'llaniluvchi birliklar (Yuklamalar, yordamchi so'zlar).. Tobe va hokim komponent. Bosh gapni izohlovchi yoki bosh gapdagi biror bo'lakni izohlovchi ergash gaplar..

-15-

Ergash gaplarni ajratishning asosiy prinsiplari. Ergash gaplarning turlari. Ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, Sabab, maqsad ergash gapli qo'shma gaplar. Payt, o'rin, shart ergash gapli qo'shma gaplar. To'siqsiz, natija ergash gapli qo'shma gaplar Ergash gaplarning o'ri

1- reja bo'yicha dars maqsadlari:

Ergash gapli qo'shma gaplar, ularning xususiyatlari, boshqa qo'shma gaplardan farqlari, bosh va ergash gaplar haqidagi ma'lumotlar bilan talabalarni tanishtirish, bosh va ergash gaplarni aniqlash tamoyillari bilan talabalarni tanishtirish. Talabalar nutqida ergash gapli qo'shma gaplarni to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Ergash gapli qo'shma gaplar haqidagi umumiy ta'rifni aytib bera oladi.
2. Bosh gap, ergash gaplar, ularning bir-biriga nisbatan joylashish o'rinlarini aniqlay oladi.
3. Bosh gapning, ergash gapning qoidalarini aytib bera oladi.
4. Ergash gapli qo'shma gaplarning boshqa qo'shma gaplardan farqini ajrata oladi.

1-reja bayoni

Birdan ortiq predikativ birliklarning intonatsion hamda grammatik jihatdan o'zaro tobelanishi va biri ikkinchisining mazmunini izohlashi natijasida hosil bo'luvchi qo'shma gap turi ergash gapli qo'shma gaplar deb yuritiladi. Ergash gapli qo'shma gap ikki qismdan tashkil topadi: hokim-komponent va tobe komponent. hokim komponent odatda bosh gapdan iborat bo'ladi. Ergash gapli qo'shma gap komponentlari o'zaro ergashtiruvchi bog'lovchilar nisbiy so'zlar, so'z formalari, tobelanish intonatsiyasi kabi sintaksis vositalar yordamida bog'lanadi. Bog'lovchi vositalarning ko'pchiligi, asosan, ergash gap tarkibida kelib, uning tobe ekanligining ko'rsatib turadi. Ergash gap bosh gapga nisbatan ma'lum bir sintaktik funksiyani bajaradi. Bosh gapdagi biror bo'lakning ma'nosini ochadi yoki bosh gapning umumiy mazmunini ma'lum bir tomondan izohlaydi, konkretlashtiradi. Shuning uchun ham ergan gaplar funksiyasi jihatidan bir-biriga yaqin bo'lib, ularning ayrimlari yoyiq gap bo'laklariga va oborotlarga sinonim hisoblanadi.

Ergash gaplarning turlarini belgilashda faqat bog'lovchi vositalarninggina emas, ergash gapning bosh gapga nisbatan qanday funksiyani bajarishini (u bosh gapga nisbatan qanday bog'lovchi yordamida bog'langan bo'lishidan qat'iy nazar) hisobga olamiz.

Ergash gaplar shaklan hamda mazmun jihatdan tobe hisoblansa-da, unda predikativ xususiyati mavjudligi bilan ma'lum bir mazmunni ifodalay oladi. Ergash gapli qo'shma gaplardagi har bir komponent mazmunan nisbiy mustaqildir.

Ular bosh va ergash gaplardan iborat bo'lishidan qat'iy nazar, bir-biriga umumiy mazmun talabi bilan bog'lanadi. Ergash gap bosh gapga ergashadi, bosh gapni aniqlab, to'ldirib turadi. Ergash gapli qo'shma gaplarning har ikkisi komponenti o'zida predikativlik munosabatini ifodalagan bo'lishi kerak: ulada gapni tashkil etuvchi asosiy sintaktik markaz – ega va kesim bo'lishi shart. Lekin shuni aytish kerakki, ba'zan ergash gapli qo'shma gap komponentlarida ega yashiringan bo'lishi ham mumkin: Kelsam, ketib qolibsiz.

Ergash gaplar ma'lum bir intonatsiya bilan bosh gapdan ajralib turishi kerak: Nur borki, soya bor. (O'.H.)

Bu xususiyat ergash gapni bosh gap qilib turuvchi eng asosiy omil hisoblanadi. Ayrim predikativ xarakterdagi yoyiq bo'laklarning ergash gap sanalmay, birikmali gap bo'laklari hisoblanishiing sababi ham ana shu bilan izohlanadi: Men ma'nosi to'la maqolni yaxshi ko'raman (Oybek). Ko'zi o'ynagan odamdan yaxshilik kutib bo'lmaydi. Yuqoridagi konstruktsiyalardagi «ma'nosi to'la:», «ko'zi o'ynagan» birikmalari predikativlikni ifodalasa ham, ergash gap sanalmaydi, chunki ularda intonatsion jihatdan ajralib turish sezilmaydi. Shuning uchun ham bunday konstruktsiyalar birikmali bo'laklar hisoblanadi.

Birikmali bo'laklar ko'proq sifat va sifatdoshlarga o'xshab, predmetning aktiv va passiv belgisini bildiradi va gapda aniqlovchi, otlashganda esa, to'ldiruvchi, hol funksiyalarini bajaradi:

O'g'li borning o'rni bor,
Qizi borning nozi bor.

Nazorat savollari:

1. Ergash gapli qo'shma gaplar haqidagi umumiy ta'rifni aytib bering.
2. Bosh gap deb nimaga aytiladi.
3. Ergash gap deb nimaga aytiladi.
4. Bosh va ergash gaplarni aniqlash usullarini aytib bering.
5. Ergash gapli qo'shma gaplarning bog'langan qo'shma gapdan farqli belgilari nimalardan iborat.

2- reja bo'yicha dars maqsadlari:

Talabalarga ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar, ularning turlari haqida ma'lumot berish, ergashtiruvchi bog'lovchilarni to'g'ri qo'llagan holda ergash gapli qo'shma gaplar tuzish va ularni nutqda to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish.

Talabalarni ergash gapli qo'shma gaplarning turlarini aniqlash prinsiplari bilan tanishtirish. Ular nutqida ergash gaplarning turlarini nutq talabiga mos holda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish

Talabalarni ega ergash gap va kesim ergash gap, to'ldiruvchi ergash gaplarning mohiyati, matnda ularni aniqlash prinsiplari bilan tanishtirish, ularni nutqda to'g'ri va o'rinli qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish. Talabalarni aniqlovchi ergash gap, ravish ergash gap, miqdor-daraja ergash gap, chog'itirish – o'xshatish ergash gaplar, ularning mohiyati, ularni aniqlash usullari bilan tanishtirish talabalar nutqida ko'rsatilgan ergash gapli qo'shma gaplarni to'g'ri va o'rinli qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish **Identiv o'quv maqsadlari:**

1. Ergashtiruvchi bog'lovchilarni to'g'ri aytib bera oladi.
2. Ergashtiruvchi bog'lovchilarning vazifasini to'g'ri biladi va to'g'ri aytib bera oladi.

-17-

3. Ergashtiruvchi bog'lovchilarning bosh va ergash gaplar orasida qanday munosabatlarni ifodalashini biladi va izohlab bera oladi.

4. Ergashtiruvchi bog'lovchilarning gaplarda qanday o'rinlarda joylashishini biladi va izohlab bera oladi.

5Ergashtiruvchi bog'lovchilar o'rnida qo'llaniluvchi so'zlarni, ularning ma'nolari va vazifalarini biladi va aytib bera oladi.

2-reja bayoni:

Ergash gapli qo'shma gaplarda tobe komponent hokim komponent – bosh gapga quyidagi sintaksik vositalar yordamidabirikadi:

A) Ergashtiruv bog'lovchilar:

«KI» bog'lovchisi – bu bog'lovchi ergash gapli qo'shma gap tarkibida ancha keng faol qo'llanib, hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida mavjud bo'lgan, deyarli, hamma ergash gap turini bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladi:

Shuni unitmaginki, kitob kishining do'stidir.

Yana aytki, bu xalq sira o'lmaydi. (H.Olimjon)

«KI» bog'lovchisida sodda gaplarda ham ishlatiladi. Uning sodda gapdagi vazifasi uni ko'proq yuklamaga yaqinlashtiradi.

«KI» bog'lovchisi ikki o'rinda: a) ergash gap kesimi tarkibida:

Onang borki, baxting barqaror: b) bosh gap kesimi tarkibida qo'llanadi:

Shunday odamlar bo'ladiki, ular faqat o'zlarini o'ylaylaydilar (P.Tursun).

Chunki bog'lovchisi. Bu bog'lovchi, asosan sabab ergash gaplarni bosh gapga boqlab keladi va ergash gap tarkibida qo'llanadi: Bugun u juda xursand, chunki dadasi kelgan.

Aldamoqqa qalbing qodirmas,

Chunki farishtasan bebaho. (L.)

Chunki yordamida bog'lanadigan sabab ergash gaplar uyushib kelishi ham mumkin, bunday paytda chunki bog'lovchisi har bir ergash gap tarkibida takrorlanib kelishi kuzatiladi.

3. Negaki bog'lovchisi so'roq olmoshidan yasalgan bo'lib, voqeaning yuzaga kelishi sababini aniqlash uchun ishlatiladi. «NEGAKI» bog'lovchisi «ChUNKI» bog'lovchisining sinonimi hisoblanib, u ham asosan, sabab ergash gapni bog'laydi va ergash gap tarkibida keladi:

-Oyqiz buning sababini ham surishtirmadi, negaki boshqa brigada boshliqlari ham kelishlari kerak edi (Sh.Rashidov).

4. SABABKI bog'lovchisi ham chunki, negaki bog'lovchilarining sinonimi hisoblanib, sabab ergash gapni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladi:

Bu to'g'rida u kishidan o'pkalamadi, sababki ozodlik nima ekanini ozodlikdan mahrum bo'lgan odam biladi. (A.Qahhor)

ShUNING UChUN bog'lovchisi sabab ergash gaplarni bosh gapga bog'laydi va bosh gap tarkibida keladi: Siz oilaning buyuk ma'nosini tushunmaymiz, shuning uchun ham oila sizga buyuk xursand bag'ishlamaydi.

Shuning uchun bog'lovchisi o'rnida shu sababli, shu sababdan, shuning orqasida, buning uchun shunday bo'lganidan keyin kabi bog'lovchilar ham qo'llanib keladi. Shuning uchun bog'lovchisi oqzaki nutqda «ShUNGA» holida keladi: Otasi o'g'lini bir oz koyigan edi, shunga xafa bo'lib o'tiribdi.

6. ShEKILLI bog'lovchisi yordamida tuzilgan ergash gapli qo'shma gapning ergash gapi tusmol, taxmin mazmunlarini bildiruvchi sabab ergash gapdan iborat bo'ladi: Mahkam birdan shuncha aybni ko'tarolmadi shekilli, ovozi titrab eshitildi (P.Qodirov). ShEKILLI bog'lovchisi ergash gap tarkibida keladi.

7. AGAR bog'lovchisi. Shu bog'lovchi shart ergash gapni bosh gapga bog'laydi, shart ergash gap shu bog'lovchi bilan boshlanadi. Ergash gapning kesimi shart fe'li formasidan ifodalanadi: Agar ruxsat bo'lsa, ketsam men (H. Olimjon).

Basharti, mabodo, bordi-yu bog'lovchilari ham o'zaro sinonim ravishda shart ergash gaplarni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladi.

8. GARCHI, HARCHAND, GARCHAND bog'lovchilari to'siqsiz ergash gaplarni bosh gapga bog'laydi: Garchi u bu gapni ilgari eshitgan bo'lsa ham, hozir esida yo'q.

9. GO'YO bog'lovchisi yordamida o'xshatish mazmunidagi ergash gaplar bosh gapga bog'lanib keladi: Go'yo hamma uning siridan voqif bo'lganday, yigit qizarib ketdi (Oybek). Go'yo quyosh oyni kuzatganidek, o't bo'lib orqangdan kezmoqdaman men (Uyg'un).

Yuqor idagi misollardan ko'rinib turibdiki, o'xshatish ergash gap go'yo bog'lovchi bilan boshlanadi, uning kesimi «-ganday», «-ganidek» qo'shimchali fe'l shakllaridan ifodalanadi.

10. TOKI bog'lovchisi yordamida quyidagi ergash gaplar bosh gapga bog'lanib keladi:

a) maqsad ergash gap: Yaxshilab ta'ziringni berish kerak, toki boshqalarga namuna bo'lsin (P.Tursun).

b) payt ergash gap: Tanamda toki jonim bor,
Unutmasman seni hargiz (Qo'shiq)/
Toki jonim bo'lar ekan tanamda,
Do'stlik kuyin kuylay ulug' Vatanda.

(G'.G'ulom)

O'zbek tilida ergash gapli qo'shma gap qismlarini biriktirishda bog'lovchi vazifasini bajaruvchi ayrim so'zlar muhim rol o'ynaydi. Bunday so'zlardan biri «demoq» fe'lidir. Bu so'z deb, deguncha, degan kabi formalarda qo'llanib, ergash va bosh gaplarni bir-biriga bog'laydi:

a) maqsad ergash gap + bosh gap:

DEB bog'lovchisi ba'zan og'zaki nutqda «deyishib» shaklida qo'llanishi mumkin:
qizlar, birov eshitib qolmasin deyishib, sekin-sekin gaplashishar edi (Og'zaki nutqda).

b) to'ldiruvchi ergash gap + bosh gap.

Ajoyib odamlar o'tgan ekan, deb
Suratingga bohaman to'ymay.

v) payt ergash gap + bosh gap

Bahor keldi deguncha, eshon bir yoqqa jo'naydilar (P.Tursun).

g) aniqlovchi ergash gap + bosh gap:

Hisobli do'st ayrilmas, degan gap bor.

B) Fe'lning sifat-dosh, ravish-dosh, harakat nomi shakllari ergash gapni bosh gapga bog'lovchi asosiy grammatik vositalardan hisoblanadi. Fe'lning funksional formalari ergash gapning kesimi ergash gapning kesimi vazifasida keladi.

1. Sifat-doshning – gan, -r,(ar) affiksini olgan shakllari ergash gaplarning kesimi bo'lib, keladi va egalik, kelishik qo'shimchalari, ko'makchilar bilan birga qo'llanadi:

- Kunlar isigan sari, ko'katlar ham quyurlashar, o'sib, ulqayib, chiroyiga chiroy qo'shardi (Sh.Rashidov). Jahl kelganda, aql ketar (Maqol). Rais gap boshlagandan keyin, zalda shovqin tindi (A.Q.). Tong otar-otmas, biz yo'lga chiqdik. Nazokat shunday xayollar bilan kelarkan, birdan quloqiga g'alati ovoz kirdi (S.Ahmad).

-Umrzoq ota nasihat qilgani bilan, Oyqiz ko'nmadi. (Sh.Rashidov).

2. Ravish-dosh orqali birikish. Ravish-doshning hamma shakli qo'shma gapda ergash gap kesimi tarkibida kelib, uni bosh gapga bog'laydi.

- b, -ib formasi

a) ravish ergash gapni: Mastura, ko'zlari jovdirab, avval dekanga, so'ng kafedra mudiriga qaradi.

b) payt ergash gapni: Kuz kelib, daraxtlarning bargi sarg'aya boshladi.

v) sabab ergash gapni: Boshimizga ham tushib, shodlikni unutganmiz (H.Olimjon).

-gach, (-kach, -qach) formasi:

a) sabab ergash gapni: Otasi o'sha kuni kelmagach, ularni vahima bosdi. (A.Qahhor). Suv bo'lmagach, hamma ekin qurib ketadi.

b) payt ergash gapni: Qo'nqiroq chalingach, hamma auditoriyaga kirdi.

-may formasi:

a) shart ergash gapni:

Yer ko'karmay, mol to'ymas.
(Er ko'karmasa, mol to'ymas).

-guncha, (-quncha, -kuncha) formasi:

a) payt ergash gapni: O'rnat shov-shuv ko'tarmaguncha, jim turish kerak (Oybek).

b) daraja-miqdor, ravish ergash gapni:

Enkayganga enkaygin, boshing erga tekkuncha,
Kekkeyganga kekkeygin, bosh osmonga etkuncha (Maqol).

v) qiyos ergash gapni:

O'ychi o'yga yetkuncha, tavakkalchi o'yiga etibdi (Maqol).
Yigitning so'zi o'lguncha, shaytonning bo'yni uzilsin (Maqol).

3. Harakat nomi yordamida ergash gaplar bosh gapga birikkanda, ergash gap kesimining tarkibida ko'makchilar ham qo'shilib keladi. harakat nomining -sh) -ish), -v (-uv) formalari «bilan» ko'makchisi yordamida qo'llanib, payt ergash gaplarni bosh gapga bog'laydi: Rais chiqib ketishi bilan, majlisning salobati yo'qoldi (A.Qahhor). Bir qaldirqoch kelishi bilan, bahor bo'lmaydi. Atirgul kelishi bilan, sevgi haqidagi suhbat yana qizib ketdi (Oybek). Latofat ko'zdan uzoqlashuvi bilan, Sobirjon o'kina boshladi (O.Yoqubov).

4. Shart fe'li yordamida birikish.

Fe'lning shart shakli sodda gapda, ko'pincha, shart holi funksiyasida keladi.

Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan. Qo'shma gapda esa shart fe'li quyidagi ergash gaplarning kesimi vazifasida keladi:

a) shart ergash gapning kesimi: Sevgilarning agar bo'lsa rost,
So'zla bir oz sevgingga xos (H. Olimjon).

b) payt ergash gapning kesimi: Bahor kelsa, ochilar gullar,
O'rmonlarda sayrar bulbullar.

v) sabab ergash gapning kesimi: Sen bo'lmasang bahor bo'lmaydi,
Ochilmaydi bog'larda gullar (H. Olimjon).
- Qaydin olsin she'rni shoir,
Bo'lmasa ilhomchisi. (A.To'qay).

Shart fe'li ba'zan istak mazmunini bildiruvchi sodda gaplarning kesimi bo'lib keladi va ergash gap sanalmaydi.

Dunyoning tinchligi buzilmasa hech,
Umrbod urushga berilsa barham.

Tarkibida nisbiy olmoshlar ishtirok etadigan quyidagi ergash gaplarning kesimi shart fe'lidan iborat bo'ladi:

g) ega ergash gapning kesimi: Kim or-nomusning qadriga etsa, u bizdan ajralmaydi. (A.Qahhor).
Kim ko'p o'qisa, u ko'p biladi. Odamlar nimaki degan bo'lsalar, hammasi rost (A.Qahhor).

d) aniqllovchi ergash gapning kesimi:

Kimning dili to'g'ri bo'lsa, uning yo'li to'g'ri bo'ladi.

E) to'ldiruvchi ergash gapning kesimi:

Kimda harakat bo'lsa, unda barakat bo'ladi.
Onasi nimani o'rgatsa, bolasi ham shuni qiladi (P.Tursun).

yo) o'lchov-daraja ergash gaplarning kesimi:

Mehnat qanchalik qiyin bo'lsa, samarasi shunchalik shirin bo'ladi.

j) qiyoslash-choqishtirish ergash gaplarning kesimi:

Qizlar ishq haqida kuylasalar,
Yigitlar vafo haqida qo'shiq aytardilar.

ya) o'rin ma'nosidagi ergash gaplarning kesimi:

Qayerda rahbar yaxshi bo'lsa, o'sha erda intizom mustahkam bo'ladi. Qayerda do'stlik bo'lmasa, shu erda ishning rivoji ham bo'lmaydi (O.Yoqubov).

i) payt ergash gaplarning kesimi: Qachonki or-nomusga tegadigan bo'lsa, qo'lga qurol olinadi (Sh.Rashidov).

Shart fe'li «ham», «-da» yordamchilari bilan birga kelib, to'siqsiz ergash gapning bosh gapga bog'laydi: Yo'lchi qancha takrorlasa ham, Yormat buni payhamas edi (Oybek).

«KERAK» so'zi bilan birga qo'llangan shart fe'li gumon, taxmin mazmunini ifodalovchi sabab ergash gaplarning kesimi bo'lib keladi: Yozayotgan narsasi juda qiziq bo'lsa kerak,

dambadam iljayib qo'yardi (A.Qahhor). Kimdir tashqarida kutib turgan bo'lsa kerak, Shoir tez-tez deraza tomonga qarab qo'yardi.

Buyruq fe'li yordamida birikish. Buyruq fe'li shart fe'lga nisbatan nafaolroq bo'lib, bu vosita, asosan, o'rin ergash gapni bosh gapga bog'lashda ishtirok etadi, bo'lishsiz shaklda qo'llanadi: Ular qaerga bormasin, do'stlik qo'shig'i baralla yangraydi.

Yuklamalar yordamida birikish. Yuklamalar sodda gapdagina emas, qo'shma gaplarda ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vosita hisoblanadi.

-KU, -MI yuklamalari ergash gapli qo'shma gapda ergash yoki bosh gapning kesimi tarkibida keladi va komponentlarni biriktiradi.

-KU, -MI yuklamalari, asosan, quyidagi ergash gapga ergashtiradi:

a) to'ldiruvchi ergash gaplarni: O'zingiz bilasiz-ku, qo'ldan berganga qush to'ymaydi (Oybek). Sharofat bu gapga ishondimi-ishonmadimi, buni bilish qiyin edi. Bilasizmi, Muhabbat ikkimiz umrbod birga yashash uchun dunyoga keganmiz (I.Rahim).

b) payt ergash gaplarni: Kecha kuchqurun uzoq uxlaganidanmi, uning qovoqlari shishib... ketgan edi (T.Qainberganov).

-ChI yuklamasi to'ldiruvchi ergash gaplarni bosh gapga bog'laydi va bosh gapning kesimi tarkibida keladi: Insof bilan ayting-chi, qachondan beri odamlarni aldash kasbingiz bo'lib qoldi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gaplarning bosh gap bilan aloqaga kirishuvdan ergashtiruvchi bog'lovchilar, ergashtiruvchi bog'lovchilar funksiyasida keluvchi yuklamalar, kelishik qo'shimchalari, ko'makchilar, fe'lning funktsional shakllari, shart va buyruq fe'li formalari, nisbiy olmoshlar, faol ishtirok etadi. Bundan tashqari, qo'shma gapda uni tashkil etuvchi komponentlar intonatsiyasi, tartib kabilar orqali ham bog'langan bo'ladi.

2-reja bayoni bo'yicha nazorat savollari:

1. Ergash gaplarni bosh gaplarga bog'lovchi vositalarni aytib bering.
2. Ergash gaplarni bosh gaplarga fe'lning qaysi shakllari bog'laydi.
3. Ergashtiruvchi bog'lovchilar o'rnida qo'llaniladigan so'zlarni ayting.

3-reja bo'yicha dars maqsadlari:

Talabalarni ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi ergash gap, ravish ergash gap, miqdor-daraja ergash gap, chog'itirish – o'xshatish ergash gaplar, ularning mohiyati, ularni aniqlash usullari bilan tanishtirish talabalar nutqida ko'rsatilgan ergash gapli qo'shma gaplarni to'g'ri va o'rinli qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish

Demak, ayrim bog'lovchilar bir necha ergash gap tarkibida kela oladi. Bunday holda bosh va ergash gaplarning o'zaro mazmuniy munosabati nazarda tutiladi. Ergash gap bosh gapning tarkibidagi ko'rsatish olmoshiga taalluqli bo'lsa, uning turini aniqlashda ana shu olmoshning sintaktik vazifasi asos-e'tiborga olinadi. Ergash gap butun bir bosh gapga, undagi fikrni ish-harakat belgisini biror tomondan ko'rsatsa, ko'proq ergashtiruvchi bog'lovchilarga qarab, ergash gap turi aniqlanadi. Bosh va ergash gaplar tasnifida har ikki qism orasidagi forma va mazmun birligiga amal qilinadi. Shunga ko'rab hozirgi zamon o'zbek tilida ergash gaplarni 14 xilga bo'lib o'rganiladi.

- 1) Ega ergash gap.
- 2) Kesim ergash gap.
- 3) To'ldiruvchi ergash gap.
- 4) Aniqlovchi ergash gap.
- 5) Ravish ergash gap.
- 6) Daraja-miqdor ergash gap.
- 7) Chog'ishtirish–o'xshatish ergash gap.
- 8) Sabab ergash gap.
- 9) Maqsad ergash gap.
- 10) Payt ergash gap.
- 11) O'rin ergash gap.
- 12) Shart ergash gap.

13) To'siqsiz ergash gap.

14) Natija ergash gap.

I. Bosh gapda olmosh bilan ifodalangan eganing yoki qo'llanilmagan eganing mazmunini izohlab, to'ldirib, konkretlashtirib keladigan ergash gap ega ergash gap deyiladi. Masalan, kimki mehnatni sevsa, hurmatga sazovor bo'ladi. («Saodat») gapida birinchi kompenet (ergash gap) ikkinchi komponentdagi (bosh gapdagi) u olmoshi bilan ifodalangan eganing mazmunini konkretlashtirgan: u hurmatga sazovor bo'ladi. – Mehnatni sevgan hurmatga sazovor bo'ladi.

II. Ega ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gap sostavida uning egasi sifatida kim, kimda-kim, har-kim, har kimki, nima, nimaiki, nimaki, qaysi, qaysi kishi, shunisi, shu narsa kabi nisbiy so'zlar; bosh gap sostavida, uni egasi sifatida –o'sha, shu, o'zi, o'sha narsa, hamma, hammasi, barcha, barchasi kabi nisbiy so'zlar bir-biriga muvofiqlashib qo'llaniladi: Kimki mehnatdan qo'rqmasa, u tuproqdan oltin ajratadi.(«Saodat»).

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,

Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidir (Bobur).

III. Ega ergash gap bosh gapga quyidagi vositalar (ergashtiruvchi vositalar) bilan tutashadi:

Fe'ning shart mayli formasi – sa elementi bilan: Kimki birovga choh qazisa, o'zi yiqiladi (Maqol).

-r-ar, ekan, -mas, ekan shakli orqali. Bunda ergash gapning kesimi sifatdoshning -r ar, -mas shakli ekan yordamida yasalgan formada kelib, bosh gapga bog'lanadi va bosh gapdagi olmosh egani izohlaydi: Kimki el-yurt xizmatida bo'lar ekan, u hech qachon yomonlik ko'rmaydi. Kimki bironing haqidan tortinmas ekan, u albatta xor bo'ladi. Kimki dilozor erur o'zi el ichra xor erur.

–ki orqali. Bunda –ki bosh gapning kesimi bilan shakllanadi: Bu yerning shunisi yaxshiki, istagancha kasb o'rganish mumkin. Javobingizdan shu narsa aniq bo'ldiki, til-adabiyotni sevar ekansiz. Ikki soatdan keyin ma'lum bo'ladiki, Qalandarov rayionga jo'nab ketibdi (A.Q.).

Bu turdagi ega ergash gaplar ma'lumki, ayonki, ravshanki, ko'rinib turibdiki, anglasqiladiki kabi kirish so'z, kirish ibora xarakteridagi bir sostavli (ko'pincha egasi qo'llanilmaydi) gaplarni ham izohlab keladi: Ma'lumki, ota-bobolarimiz yerni ardoqlagan, nonni ko'ziga surib e'zozlagan. Shunisi qiziqki, laboratoriya bir hafta davomida ishlamagan.(As.M.). Ko'rinib turibdiki, shaxsiy manfaatni davlat manfaatidan ajrata olmaysiz.(As.M.).

–mi. Ega ergash gap bosh gapga so'roq yuklamasi – mi orqali birikadi. Bosh gap so'roq gap tarzida shakllangan bo'lsa ham, ergash gapdagi voqeani eslatish, yodga tushirish mazmunini bildiradi: O'sha esingdami, men uni qayta ko'rolmadim. («Saodat»). Esingizdami, yozgan xatlarimning birida sizdan hisob so'rayman degan edim-u. (A.Q.).

– ku. Bu yuklama bilan birikkan qo'shma gaplarda bosh gap mazmunan kirish gapga yaqin bo'ladi: Ko'nglingizga kelmasin-ku, odam har xil bo'lar ekan (A.Q.).

Ega ergash gaplar bosh gap bilan qaysi grammatik vositalar orqali bog'lanishga qarab, turlicha o'rinishadi. Fe'ning shart mayli (-sa), sifatdoshning to'liqsiz fe'l bilan birikishidan hosil bo'lgan formalari (-r,-ar ekan, -mas ekan) orqali birikkanda, biriktiruvchi vositalar ergash gap tarkibida bo'ladi. Ergash gap bosh gapga -ki, -mi, -ku bog'lovchilari orqali birikkanda, ergash gap ikkinchi, bosh gapga birinchi o'rinda keladi. Tutashtiruvchi vositalar bosh gap tarkibida bo'ladi.

IV. Kimki mehnat mashaqqatlaridan qo'rqmasa, u toshdan dur, tuproqdan oltin ajratadi (O.).

Tahlili: Ikki gapdan tuzilgan. Birinchi gap ergash, ikkinchisi bosh gap. Birinchi gapda kimki, ikkinchisida u nisbiy olmoshlari qo'llanilgan. Birinchi gap ikkinchi gapdagi ega funksiyasida kelgan u olmoshini izohlagan – ega egrash gap. Ega ergash gap bosh gapga –sa, bog'lovchisi orqali birikkan bo'lib, birinchi o'rinda, bosh gap, ikkinchi o'rinda, -sa bog'lovchisi ergash gap tarkibida kelgan.

Chizmasi:

1. Kesim ergash gapning ta'rifi.

2. Kesim ergash gapning qo'shma gaplarda nisbiy olmoshlarni qo'llanilishi.

3. Kesim ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositalar hamda gap komponentlarining o'rinish tartibi.

4. Kesim ergash gapning qo'shma gapga doir tahlil namunasi.

I. Bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan kesimning mazmuni izohlab, konkretlashtirib keluvchi, ergash gaplar kesim ergash deyiladi: Maqsadim shuki, jahonda tinchlik bo'lsin.

Bu gapda bosh komponentning kesimi olmosh bilan ifodalanaganligidan mavqum xarakterga ega. Mana shu kesim mazmunini konkretlashtirish uchun boshqa bir aniqlovchi komponent (jahonda tinchlik bo'lsin) keltiriladi, bu komponent orqali bosh gapning kesimi reallashadi: Maqsadim – jahonda tinchlik bo'lsin.

II. Kesim ergash gapli qo'shma gaplarda bosh gap tarkibida – kesim funksiyasida shuki, shu yerdaki, shundaki, shundan iboratki, shu bo'ldiki, shu ediki, shumidiki, kimsanki, nimasanki kabi so'zlar qo'llaniladi va ularning mazmuni ergash gap tomonidan konkretlashtiriladi. Bularga doir misollar kiritamiz.

Shuki: ko'nglingiz uchun bitta qo'shig'imni aytib beraman, ammo shartim shuki, Umarali aka, kulmaysiz (O.). Shu yerdaki: muvaffaqiyatlarimizning boisi shu yerdaki, biz agrotexnika qoidalariga to'la rioya qilamiz (Gazeta).

Shundan iboratki: masalaning mohiyati shundan iboratki, bu qurilishlarni loyihalash va boshqarish tajribasida katta xato va yetishmovchiliklar oshkor bo'lyapti (As.M.).

Shumidiki: Sizdan umidimiz shumidiki, do'stlarning yuziga tik boqadigan, dag'al muommali qiladigan qiliqlar chiqaribsiz («Guliston»).

Shunda ediki, shu bo'ldiki: G'ofur G'ulomning usta san'atkorligi shunday ediki, u hayotni chuqur bilar, uni ustalik bilan she'rga ko'chiradi («Guliston»). Majlisni olib borishdagi hurmatsizlik shu bo'ladiki, rais kun tartibini e'lon qilmasdan so'zga tushib ketdi. (A.Q.).

Kim bo'libsanki: kim bo'libsanki, dag'dag'ang olamga sig'maydi. (Mushtum).

Nimaiki, nima ekanki: u nimaki sen unga bunchalar sehiranib qolibsan, qizim («Guliston»). U nima ekanki, seni kuldirar ekan-u, meni yig'latar ekan (A.Q.).

Bosh gapning kesimi yuqoridagi formalar bilan ifodalangan ergash gapli qo'shma gaplar mazmun jihatidan ma'lum farqlarga ega, albatta.

Kesim ergash gap bosh gapdagi sostavli ot kesimning ot qismini izohlab ham keladi: Yer koptok emaski, bir tepib uchirsang (A.Q.).

Odam bolasi sirkning oti emaski, qamchin qarsillaganda, cho'kkalasa.

III. Kesim ergash gap, asosan, -ki bog'lovchisi bilan bosh gapga birikadi. –Ki bosh gap tarkibida, bosh gap birinchi o'rinda, ergash gap ikkinchi o'rinda keladi: Umid shulkim, tole yor bo'lsin. (G'.G').

IV. Bu kitobni tushunishning birinchi sharti shuki, to'g'ri va diqqat bilan o'qiy bilishdir (K.D.).

Tahlili: Ikkita gapdan tuzilgan. Birinchi gap bosh gap, ikkinchisi ergash gap. Ikkinchi gap bosh gapdagi shu olmoshi bilan ifodalangan kesimni izohlagan – kesim ergash gap. Ega ergash gap bosh gapga - ki bog'lovchisi bilan birikkan bo'lib, bosh gap birinchi o'rinda, ergash gap ikkinchi o'rinda, bog'lovchi bosh gap tarkibida.

Chizmasi:

I. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapning ta'rifi.

II. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplarda nisbiy so'zlar.

III. To'ldiruvchi ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositalar va qo'shma gap komponentlarining o'rinish tartibi.

IV. To'ldiruvchi ergash gapga tahlil namunasi.

Bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan to'ldiruvchini yoki qo'llanilmagan to'ldiruvchining mazmunini izohlab, konkretlashtirib keluvchi gaplar to'ldiruvchi ergash gap deyiladi. Masalan, Shuni aytib o'tayki, kema butun mas'uliyatni o'z ustiga olgan, kema darg'asining buyrug'i bilangina u to'lqinlarni yorib, dengizlar osha oladi («K.D») gapida ergash gap (keyingi gap) bosh gapdagi (birinchi gap) olmosh (shuni) bilan ifodalangan mavhum bo'lakning - to'ldiruvchining mazmunini izohlab, to'ldirib kelgan: Shuni, ya'ni kema butun mas'uliyatini o'z ustiga olgan kema darg'asining buyrug'i bilangina to'lqinlarni yorib, dengizlar osha olishni, aytib o'tay.

II. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplarda nisbiy so'zlarning qo'llanilishida o'ziga xoslik bor.

Bosh gap birinchi o'rinda kelganda, uning tarkibida shuni, shu narsani, bir narsani, shunga, shu narsaga kabi olmoshlar qo'llaniladi va bu izohlanadi: Bu olmoshlar ergash komponentda biror formada takrorlanib qo'llanmaydi:

Shuni bilamanki, mashinaga ajratilgan kattakon bir kartaga Arslonbek akam mo'ylovchi qilib odam qo'ydirib yubordilar (A.Q.) gapining bosh komponentida «shuni» bo'lagining mosi keyingi gapda bo'lmaydi.

Ergash komponent birinchi o'rinda kelganda, ergash gap tarkibida nimaga, kimni, nimani, kimga, nima, nimani, kim bilan, nima bilan bosh gap tarkibida uni, shuni, o'shani, hammasini, barchasini, barini, o'sha bilan, shu bilan, u bilan kabi nisbiy so'zlar bir-biriga muvofiqlashib keladi.

To'ldiruvchi ergash gaplarni ana shu izohlanishi kerak bo'lgan nisbiy so'zlarning (obektining) xususiyatiga ko'ra ikkiga ajratish mumkin. Bosh gapdagi vositasiz to'ldiruvchini izohlaydigan ergash gap bosh gapdagi vositali to'ldiruvchini izohlaydigan ergash gap.

Vositasiz to'ldiruvchisi izohlanayotgan qo'shma gaplarda bosh gapning kesimi o'timli fe'llar orqali ifodalanadi: Oygul siz shuni yaxshi bilingki, sizning juda ko'p samimiy do'stlaringiz bor («Sh.Yu»). Ona biladiki, endi har nahor, butun Vatan bo'ylab to'lishar bahor.

Vositali to'ldiruvchisi izohlanayotgan qo'shma gaplarda o'timsiz fe'llar bosh gapning kesimi bo'li keladi. Shunga erishmog'imiz kerakki, moddiy va ma'naviy boyliklardan hamma teng bahramand bo'lsin.

Ko'p hollarda ergash gap tomonidan izohlanishi kerak bo'lgan bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan to'ldiruvchi qo'llanmaydi – «tushib qoladi». Biroq qo'llanilmagan bu obekt uning vositali yoki vositasiz to'ldiruvchi ekanligi, boshqaruvchi bo'lak – kesimdan anglashilib turadi. Ergash gaplar mana shu ifodalanmagan – elipsisga uchragan bo'lakning funksiyasini ham konkretlashtiradi – o'rmini qoplaydi (kompensatsiya qiladi). Masalan, Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi. (G'.G'.) gapining kesimi o'timli fe'l, qo'llanilmagan bo'lak (shuni, shu narsani) vositasiz to'ldiruvchi.

Bosh gapdagi izohlanishi kerak bo'lgan to'ldiruvchilar quyidagicha shakllanadi:

Tushum kelishigida: «Shuni unutmangki, Davron erishilgan yutuqlar bilan xotirjam bo'lib qololmaydi.

Jo'nalish kelishigida: Men shu narsaga aminmanki, tinchlik urushni yengadi.

Chiqish kelishigi formasida: Shu narsadan xavotirlanamanki kanalni qazib bitkazmasak, suvsiz qolamiz («Guliston»).

III.To'ldiruvchi ergash gapni biriktiruvchi vositalar quyidagilar:

-ki: Hech qachon esimizdan chiqarmaylikki, ayollar o'tmishda hammadan ko'p zulm ko'rgan (As.M.).

-mi: Bilasizmi, paxtakorning shuhrati olamga ketgan.

-ku: Bilasizku, mardning so'zi bir bo'lur, birgalashsak, dushman qo'li tang bo'lur (I.).

deb: Yaxshilik hech vaqt unutilmaydi, yomonlik hech vaqt jazosiz qolmaydi deb, bekorga aytmaganlar («K.D.»).

-chi: Chiqib ko'r-chi, kimlar kelibdi.

-sa: Kimda-kim Go'ro'g'lining G'irotini olib kelsa, Shunga berarkan Nigorxon qizini (I.).

Ergash gap -ki, -ku, -mi,-chi yordamchilari orqali bosh gapga biriksa, bosh gap birinchi (bog'lovchi vositalar bosh gap tarkibida), ergash gap ikkinchi; -sa, deb yordamchilari bilan biriksa, ergash gap birinchi (bog'lovchi vositalar ergash gap tarkibida), bosh gap ikkinchi o'rinda keladi. Ba'zan bosh gap har xil sabab bilan ergash gapning o'rtasiga tushib qoladi. Bunda bosh gap kirish gap xarakteriga ega bo'ladi.

Alisher, buni yaxshi bilasizki, bolalik yillaridayoq badialar ijod qilib «Zullisonayn» laqabi-la shuhrat topdilar (O.).

IV. Men shu narsaga aminmanki, tinchlik urushni engadi:

Ikki gapdan tuzilgan. Birinchi gap bosh gap, ikkinchi gap ergash gap. Ikkinchi gap bosh gapdagi olmosh (shu narsa) bilan ifodalangan to'ldiruvchini izohlagan – to'ldiruvchi ergash gap.

To'ldiruvchi ergash gap bosh gapga – ki, bog'lovchisi orqali birikkan bo'lib, bosh gap birinchi, ergash gap ikkinchi o'rinda, -ki bog'lovchisi bosh gap tarkibidan kelgan.

Bosh gapdagi olmosh bilan, ifodalangan aniqllovchini yoki qo'llanmagan aniqllovchini izohlab, to'ldirib keluvchi, oydinlashtiruvchi ergash gaplar aniqllovchi ergash gap deyiladi. Masalan: O'zbekiston shunday diyorki, fasllari gulga o'ralgan. (U.) gapida ergash gap (fasllari gulga o'ralgan) bosh gapdagi aniqllovchi funksiyasida qo'llanilgan shunday so'zini izohlab, oydinlashtirib kelgan. Bu qo'shma gapni transformatsiya qilganda, yaqqol seziladi: bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan bo'lak (shunday) funksiyasida endi aniqllovchi ergash gap (fasllari gulga o'ralgan) qo'llanilgan bo'ladi. Qiyoslang: O'zbekiston shunday diyorki, fasllar gulga o'ralgan. – O'zbekiston fasllari gulga o'ralgan diyorki.

II. Bosh gap birinchi o'rinda kelganda, uning aniqllovchisi sifatida shunday, ba'zi, bir xil, ayrim, bir, ba'zi bir, hech bir, shunday bir kabi nisbiy olmoshlari qo'llaniladi va bular ergash gap tomonidan konkretlashtiriladi.

Shunday bir: Endi shunday bir hikoya aytib berki, unda doimo shoshiladigan, ishning orqa-o'ngini o'ylamasdan harakat qiladigan bir odamning ahvoli ta'sir etilsin... («K.D.»).

Ba'zi, ba'zi bir, ayrim: Ba'zi bir rahbar xodimlarimiz borki, Ular tanqiddan to'g'ri xulosa chiqarmaydilar. Ayrim ilmiy muassasalar borki, unda fan yutuqlarini ishlab chiqarishga faol tatbiq etish yomon yo'lga qo'yilgan.

Bir: Bir vatanning o'g'li menkim, har taraf gul, lola, bog'. (G'.G'). Hech bir: hech bir ona yo'qki, farzandiga ichi achimasa.

Bosh gap tarkibidagi qo'llangan shunday, ba'zi bir, ba'zi, bir xil, ayrim, bir kabi so'zlar ko'p hollarda bir-biriga sinonim bo'lib g'am qo'llaniladi: Shunday bir (bir xil, ayrim, ba'zi) olimlar g'am bo'lganki, ular ijodda hech qachon to'xtab qolmaganlar.

Bosh gap ikkinchi o'rinda kelganda, ergash gap tarkibida kim, kimki, kimning, bosh gap tarkibidagi olmoshlar ergash gap tomonidan oydinlashtiriladi. Kim egri bo'lsa, uning taqdiri fojiali bo'ladi.

Kimki, olimlardan hayo qilmasa, ularni hurmat etmasa, ularning afzalliklarini e'tirof etmasa, ularni haqoratlardan qutqarmasa, unday odamning aqli zoye ketadi va hayoti barbod bo'ladi. («K.D.»).

Ergash gap ba'zan bosh gapdagi shu, u, o'sha, uning, o'shaning so'zlari bilan ifodalangan aniqllovchining ma'nosini ham oydinlashtiradi. Bunda ergash gap tarkibida qaysi, qanday, qay, kabi nisbiy olmoshlar qatnashadi: qaysi kitob sizga yoqsa, o'sha kitobni xarid qilamiz. Siz qaysi fakultetni lozim ko'rsangiz, men shu (o'sha) fakultetga hujjat topshirishga roziman.

Ba'zan, ma'lum qonuniyat, masalan, ekonimiya asosida, bosh gapdagi izohlanishi kerak bo'lgan aniqllovchi qo'llanmasligi (ellipsisga uchrashi) mumkin. Ergash gap mana shu qo'llanmagan bo'lakni izohlaydi. Umrlar bo'ladiki, tirigida o'likdir, Odamlar bo'ladiki, o'ligida tirikdir (M. Shayxzoda).

Odam borki, odamlarning naqshidir,

Odam borki, undan hayvon yaxshidir. (N.)

III. Aniqllovchi ergash gap bosh gapga quyidagi vositalar bilan birikadi:

–ki: Shunday odam haqida xabar keltirdimki, uning har bir so'zi gavhardir. (O.)

–sa: Kimning ko'ngli to'g'ri bo'lsa, uning yo'li ham to'g'ri bo'ladi.

Ergash gap – ki yordamida bosh gap bilan biriksa, bosh gap birinchi, ergash gap ikkinchi o'rinda keladi va bog'lovchi bosh gap tarkibida bo'ladi. Agar ergash gap – sa elementi bilan bosh gap biriksa, ergash gap birinchi, bosh gap ikkinchi o'rinda keladi, bog'lovchi ergash gapni kesimi tarkibida bo'ladi.

IV. Bu shunday ajib diyorki, uning zo'r ko'zgusi oydir. (H.O.)

Ikkita gapdan tuzilgan. Birinchisi bosh gap, ikkinchisi ergash gap. Ikkinchi komponentdagi aniqllovchi (shunday olmoshni) izohlagan – aniqllovchi ergash gap. Komponentlar – ki bog'lovchisi orqali birikkan; bosh gap birinchi, ergash gap ikkinchi o'rinda, bog'lovchi bosh gap tarkibida.

Chizmasi:

Sabab ergash gapni kesimi shaklan bosh gapga nisbatan tobe yoki mustaqilligi nuqtai nazaridan, ikkiga ajratish mumkin:

A) Kesim formasi orqali bosh gapga bog'lanadigan ergash gaplar;

B) Bog'lovchilar orqali bosh gapga bog'lanadigan ergash gaplar.

II. Kesim formasi orqali bosh gapga bog'lanadigan sabab ergash gaplar bosh gapga quyidagi vositalar bilan birikadi:

1. Uchun: Dunyoni tark etmagayman, dunyoda sen bor uchun (U.). Kichik ariqqa hali suv kelmagani uchun Gulnora chelak ko'tarib katta ariqqa jo'nadi (O.).

2. Sababli: Kuzgi shudgor sifatli bo'lganligi sababli, hosil yaxshi bo'ldi.

3. Tufayli: Dushman keltirgan talofat tufayli, temiryo'l izdan chiqqan edi.

4. –ganidan, -ganligidan: Jim ketish noqulay bo'lganidan Saidga gap boshladi. (A.Q.) Nuri gapga e'tibor qilmaganidan Yormat endi qizga qarab so'zlay boshladi.

5. –mi: kesimi bu forma bilan shakllangan ergash gaplar gumon, noaniq sabab anglatadi: Atrofda noxush voqealar yuz berganligidanmi, shoirning ko'ngli g'ash edi (O.).

–mi elementi uchun, sababli, tufayli yordamchilari bilan shakllangan ergash gaplarning kesimlaridan keyin ham qo'shib keladi va gumon, taxmin noaniq sabab ma'nosini ifodalaydi: Kecha tog'da tuman borligi uchunmi (sabablimi) samalyot uchmadi.

6. –gan (ganligidan) bo'lsa kerak: Bu forma bilan shakllangan ergash gaplar ham noaniq sabab ifodalaydi: Qalandarov Saidaning zarbga bunday epchilik bilan chap berishini xayoliga keltirmagan bo'lsa kerak, o'zi shoshib qoldi (A.Q.).

Yig'ilish kechiktirilgan bo'lsa kerak, boshqarmada Rahmatqulov ham ko'rinmadi (As.M.).

7. Shekilli, chog'i: Bu formalar ham funksiyasi jihatidan –mi yordamchisiga yaqin turadi: bosh gapdagi voqelikni yuzaga keltirgan sabab konkret bo'lmaydi: Bu fojiani hamma undan ko'rayotgandek tuyuldi shekilli, u qayoqqadir g'oyib bo'ldi (As.M.). U uzoqni, o'tgan bahorni, yozni esladi chog'i, ko'zlarida o'ychan, g'amgin bir jilmayish ko'rindi (As.M.).

8. –ki: Baxtim borki, har narsa go'zal ko'rinadi mening ko'zimga.

9. –deb: Qora erga yaqin kelsin deb quyosh,

Ulug'bek yo'qotdi ko'kday ulug' bosh (G'.G').

10. Keyin, so'ng: Ketaman deb turib olgandan keyin, ruxsat berdim-da! (As.M.). (Ketaman deb turib olganligi uchun ham, javob berishga majbur bo'ldim mazmunida.

11. –b, (-ib): Nahotki Dilbar o'z kelajagidan cho'chib, ruhi ezilib ketgan edi (As.M.).

12. -gach: Bolasi bu erda talaba bo'lgach, otasi osuda va ko'ngli to'qdir (G'.G').

13. –may, -masdan: Ko'pincha suv tashiydigan odam topilmay, suvsiz o'tiramiz (O.). Bu alamlarga chidolmay, ko'zdan yoshim shashqator (M.).

Bevosita kesim yoki uning formasi orqali emas, bog'lovchilar orqali bosh gapga birikadigan sabab ergash gaplarning bosh gapga quyidagi vositalar biriktiradi;

1. Chunki: Halol mehnat qilmoq eng yaxshi odat, chunki mehnat berdi bizga saodat

2. Negaki: Adolat buning sababini surishtirmadi, negaki boshqa boshliqlar ham kelishi kerak edi.

3. Sababki: Bu to'g'rida u kishidan o'pkalamadim, sababki ozodlik nimaligini ozodlikdan mahrum bo'lgan odam biladi 4. Shuning uchun, shu sababli, shu boisdan, shu vajdan: har kun ortar ko'zlarimdan nur, shuning uchun yo'q aslo g'amim (Q.O.).

Unda mehmonlar ko'p bo'ldi, shu sababli qizlar yon qo'shninikida alohida bir xonani egalladilar (O.).

5. –ki: Men sizga shuning uchun ham ishona olmaymanki, siz olg'a qarab emas, orqaga qarab ketayapsiz (A.Q.).

Sabab ergash gap bosh gapga -gach, -ganidan, -ganligidan, -may, -masdan formalari, uchun, deb, sababli, tufayli ko'makchilar, -mi, shekilli, chog'i kabi modal so'z va yuklamalar bilan biriksa, birinchi o'rinda, bosh gap ikkinchi o'rinda keladi; biriktiruvchi formalar ergash gapning kesimi tarkibida bo'ladi.

B) Sabab ergash gap bosh gapga chunki, negaki, sababki bog'lovchilari bilan biriksa, bosh gap birinchi, ergash gap ikkinchi o'rinda bo'ladi, bog'lovchilar ergash gaplarni boshida qo'llaniladi.

V) Sabab ergash gap bosh gapga shuning uchun, shu sababli, shu boisdan, shu vajdan, shu sababdan bog'lovchilari bilan biriksa, ergash gap birinchi o'rinda, bosh gap ikkinchi o'rinda keladi, bog'lovchilar bosh gap tarkibida qo'llaniladi.

G) –ki bog'lovchisi orqali bosh gapga bog'langan sabab ergash gaplar bosh komponent oldin ham, keyin ham keladi, ham ergash gap, ham bosh gap tarkibida qo'llaniladi.

-29-

Qiyoslaylik: Baxtim bor har narsa go'zal ko'rinar mening ko'zimga (ergash gap birinchi o'rinda).

Men sizga shuning uchun ham ishonmaymanki, siz olg'a qarab emas, orqaga qarab ketayapsiz. (bosh gap birinchi o'rinda)

D) Agar bosh gapdagi ega tarkibiga ahamiyat berib aytilsa, shu qism ergash gapdan oldin qo'llaniladi: Murod, elektr nuri tushib turganidan, uni ko'rmadi (S.).

Uning bolalarcha qo'ng'iroq tovushi, zal keng va tinch bo'lganidan, o'zi kutgandan va kuchliroq jaranglab ketdi (As.M.).

I. Bosh gapdagi voqea-hodisa yoki harakatning yuzaga kelishi vaqtini bajarilish paytini anglatadigan ergash gap payt ergash gap deyiladi. Payt ergash gapli qo'shma gapda voqea-hodisa yoki harakatning bir vaqtda yoki ketma-ket sodir bo'lishi ifodalanadi: U g'azabdan yallig'langan ko'zlari bilan qosh ostidan unga tikilib turarkan, ro'parasida, negadir, Xolmat Yunusovich gavdalandi (As.M.). Darvozadan chiqib, katta yo'lga bir oz yurilgach, ular chap tomonidagi tolzor ko'chaga burilishdi (A.Q.).

Boshliq o'zini bosguncha, u fikrini bir joyga to'plab oldi. (As.M.) gaplarining birinchi va ikkinchisida voqelik bir vaqtda: uchinchi va to'rtinchisida ketma-ket; beshinchisida bosh gapdagi voqelik ergash gapdagi voqelikdan oldin yuz berganligi ifodalanagan.

II. Ergash gap bosh gapga quyidagi vositalar bilan birikadi:

1. – ganqda: Vodiylarni yayov kezganda, bir ajib his bor edi menda (H.O.). – gan o'rin-payt kelishigi bilan shakllangan payt bildiruvchi chog', payt, zamon, kez, dam, mahal, vaqt, on formalari bilan: Usta Samarqandda ishlagan vaqtda, Sultonmurod uch yashar bola edi (O.). Vadakachka bitgunga qadar, ariq tayyor bo'ldi.

Mazmun hamda shakl jihatdan go'zal kitob yozilgunga qadar, ular shu zaylda ishladilar («K.D.»). U endi choy-poy qilib turgan mahalda, Abdurasul, Oyimxon, Aliqul kirib kelishdi. Tong yorisha boshlagan paytda, birdan zilzila sodir bo'lgan edi.

2. –ganda, -gan vaqtda (paytda, chog'da...) kabi formalar bilan birikkan ergash gaplarni komponentlardagi voqelik bir vaqtda yuz beradi.

3. –gan zamon (on, hamon, zahoti kabilar) bilan birikkan payt ergash gaplarda komponentlardagi voqelik tez almashganligi anglashiladi:

Ko'cha eshik bo'sag'asida Otash – dukchi paydo bo'lgan on, qizlar uning avzoyi buzuqligini payqab, darrov uy-uylariga tarqalishdi.

Misollardan anglashiladiki, -gan zamonda, gan zamon formalari bir xil – sinonimik vositalar emas.

4. –gandan keyin (so'ng). Bu formalar orqali birikkan payt ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gapdagi voqelik bosh gapdagi voqelikdan oldin yuzaga kelgan bo'ladi: Rahmonqulov stol yoniga o'tirgandan keyin, Xumorxon xat olib kirdi. Turg'un o'zini tamoman to'xtatib olgandan so'ng, Mastonoy gap boshladi (O.).

5. –gandan beri (buyon, boshlab) formalari orqali bosh gapga birikkan ergash gaplar harakatning boshlanish paytini, qachondan beri davom etayotganini anglatadi: Tong yorishgandan beri, odamlar kanal tomon yuradilar (H.O.). Seni, Omon, ko'rgandan beri, ko'zlarimga uyqu kelmaydi (H.O.).

6. –guncha, -gan (-gun) ga dovur (qadar) formalari bilan bosh gapga birikkan ergash gapli qo'shma gaplarda bosh gapdagi harakat boshlanishidan oldin yuzaga kelganligi ifodalanadi.

7. –gan edi, -gan ham ediki, -gan ediki, -ganicha yo'q ediki, -ganicha ham yo'q formalari bilan bosh gapga birikadigan ergash gapli qo'shma gaplarda voqealarning odatagidan tez yuzaga kelganligi, biridan ikkinchisiga tez ko'chishi kabi mazmun ifodalanadi: Saida o'rnidan turgan edi, Nosirov to'xtadi (A.Q.). Shoir she'rni o'qib tugatgan ham ediki, atrofdagilar qarsak urib yubordilar (O.). U

shu suvdan ichmoqchi bo'lib, suvdonni to'latgan ham ediki, qo'sh qanot qoqib suvni to'kib yubordi («K.D.»).

8. –r (-ar) ekan (kan). Bu forma bilan birikkan qo'shma gaplarda ergash gap va bosh gapning mazmuni bir vaqtda yuzaga keladi: U g'azablangan ko'zlari bilan qosh ustidan unga tikilib turarkan, ro'parasida, negadir, Xolmat Yunusovich gavdalandi (As.M.). Jumaboy xayr-xo'shlar ekan, Umarali zo'raki iljayish bilan o'rnidan turdi (O.).

9. –sa. Bog'lovchi orqali birikkan ergash gap ham payt, ham shart ma'nosini ifodalashi mumkin: Agar payt ma'nosi ifodalansa, ergash gap mazmuni bosh gapning mazmuni bilan bir vaqtda yuzaga kelgan bo'ladi; Bir vaqtning o'zida ham payt, ham shart mazmunini ifodalanganda, ergash gapdagi harakat bosh gapdagi harakatdan oldin yuzaga keladi; payt mazmunini ifodalagan ergash gaplardagina –sa o'rnida –ganda, –gan vaqtda kabi formalarni qo'llash mumkin bo'ladi: Sizni ko'rsam (ko'rganimda, ko'rgan paytda), boyning qizi bo'lganiga o'zim ham afsus qilib ketaman (O.). Yuzingni bir ko'ray desam (ko'rmoqchi bo'lganimda), qo'lingni pardalar qilding (Zavqiy). –sa bog'lovchisi ba'zan –ki bilan birga ham qo'llaniladi: Uyga kirsaki, Jamila yo'q, qarasaki, sandiq oqib kelyapti (F.).

10. –may, –masdan, –masdan burun (avval, oldin, ilgari). Bu formalar bilan birikkan qo'shma gaplarda bosh gapdagi voqea ergash gapdagi voqeadan oldin yuzaga kelgan bo'ladi: Naqqosh ketmasdan avval, shoir eshikka chiqdi (O.).

Na ko'kning fonari o'chmasdan,
Na yulduz sayr etib ko'chmasdan,
Na ufq o'ramay yoqut zar,
Na bulut silkitmay oltin par,
Tong kulmasdan burun turardi (U.).

11. –r (-ar) –mas. Kelasi zamon sifatdoshining bo'lishli va bo'lishsiz formasi (juftlashib) orqali bog'langan bunday qo'shma gaplarda ergash gapdagi harakat to'la bajarilib bo'lmasdan, bosh gapdagi harakat boshlanadi: Kun botar-botmas, biz qishloqqa kirib bordik.

12. –b (-ib), –gach: yanvar oyi boshlanib sovuq tushdi. Ular supaga o'tirishgach, suhbat o'z-o'zidan boshlanib ketdi.

13. –sh (-ish) bilan, deguncha. Bu formalar bilan birikkan qo'shma gaplarda bosh gapdagi voqea ergash gapdagi voqeaning boshlanishi yoki yuz berishi bilanoq sodir bo'ladi: Fil xartumini suvga solishi bilanoq, suv chayqala boshlandi («K.D.»). Bir ishni qo'liga oldi deguncha, ikkinchisi chokidan ketadi (O.).

14. –ki: Bu bog'lovchi bilan birikkan qo'shma gaplarda bosh gapdagi harakat yoki voqelikning qachondan beri davom etishi yoki mavjudligi ifodalanadi: Nur borki soya bor. U bir necha kun bo'ldiki, joyidan jilmaydi. («K.D.»).

Dunyo yaralmishki, bu oftob bor,
Sharqdan ko'tarilib, botardi g'arbga. (G'.G'.)

Shu dargohga kelibmanki, janjaldan boshim chiqmaydi. (A.Q.).

15. –mi: Bu bog'lovchi orqali birikkan qo'shma gaplarda bir voqea ikkinchi bilan tez, qisqa muddatda almashganligi anglashiladi: Uzoqdan qora ko'rindimi, chopib oldiga borar edi (A.Q.). Paxta ochildimi (ochilishi bilan) terim boshlandi.

Payt ergash gaplar, ko'pincha, bosh gapdan oldin keladi, ergashtiruvchi formalar ham ergash gap tarkibida bo'ladi. Biroq uslubi-poetik talablar bilan ergash gapning inversiya bo'lishi – bosh gapdan keyin yoki uning o'rtasida qo'llanilishi mumkin: U, quyosh botib, salqin tushganda, yo'lak bo'ylab sayohatga chiqdi.

III. Maymun ponani chiqargan ham ediki, dumini yog'och qisib oldi (K.D.).

Ikki sodda gapdan tuzilgan. Payt ergash gapli qo'shma gap. Payt ergash gap –gan ham ediki formasi bilan bosh gapga birikkan, bog'lovchi ergash gap tarkibida bo'lib, birinchi o'rinda, bosh gap ikkinchi o'rinda keladi.

I. To'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gapning mazmuni bosh gapning mazmuniga zid bo'ladi; shu zidlikka qaramay, bosh gapdagi voqea-hodisa yuzaga keladi-bajariladi.

Bosh gapdagi voqelikning yuzaga kelishiga monelik qilmaydigan ana shunday ergash gaplar to'siqsiz ergash gaplar deyiladi.

To'siqsiz ergash gap mazmun va tuziltish jihatidan shart ergash gapga yaqin. Shart ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gap shartni, bosh gap uning natijasini bildiradi. To'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplarda esa bosh gap ergash gapdagi shartga asoslangan natijani emas, shartsiz natijani, bosh gap natijasiga qarama-qarshi sababni bildiradi. Shart ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gapdagi voqea («A») bosh gapdagi voqea («B») ni keltirib chiqaradi: to'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplarda esa ergash gapdagi «A» siz «B»ni keltirib chiqaveradi. Qiyoslaylik: Boshqalar o'zini har qalay tutib qolgan bo'lsa ham, Onaxon hamon tinchiy olmas edi (As.M.).

II. To'siqsiz ergash gaplar bosh gapga vositalar bilan bitirikadi:

–sa ham (yam): Gulning to'ni ming yamoq bo'lsa ham, u –gul.

–sa hamki: Bu ish andak mehnat talab qilsa hamki, foydasi yo'q... («K.D.»). Bo'lsang ham qari, bo'sang hamki chol, qo'lingga qurol ol! (H.O.)

–sa: O'zi ko'rmasa, bolalari ko'rar yorug'likni, dedi kampir osoyishta tovush bilan (O.).

–sa-da: Tulki tilmochning asli ismi Bozorboy bo'lsa-da, bu ismini ko'plar bilmas edi (O.). Kiyinish bir kishining shaxsiy ishi bo'lib ko'rinsa-da, u kishini o'z didini boshqalarga yuqtirayotganligini unutmasligi kerak («Saodat»).

–gan da- ham (-yam): Buloq qaziyotgan barcha odamlar charchab uyquga ketganda ham, Olimjon bezovtalanib aylanib yurar edi («F.T.»).

–gan chog'da (paytda, vaqtida, taqdirda) ham: Oq yog'ilib turgan paytda ham ona yodga olinadi («Saodat»).

Yuqori misollardan anglashiladiki, to'siqsiz ergash gaplar mazmun jihatdan quyidagi ikkita guruhga ajraladi:

To'siqsiz-shart ergash gapli qo'shma gaplar. Bunday ergash gaplar bosh gapdagi mazmunga zid qo'yilgan shartni anglatadi: Suv to'xtasa ham, parrak aylanib turadi (As.M.).

To'siqsiz-payt ergash gapli qo'shma gaplar. Bunda ergash gap bosh gapning mazmuniga zid bo'lgan paytni bildiradi: Asalari uzoq-uzoqlarga uchganda ham, u o'z uyasini tark etmaydi (F.t.).

–gan (i) bilan: Toshga yomg'ir qor qilurmi, muttasil yoqqan bilan, Davlatingiz kam bo'lurmi, bir qiyo boqqan bilan (G'.)

–ga qaramay (qaramasdan): Martabasi ulug' bo'lishiga qaramasdan, eng yaqin do'stdek g'amxo'rlik qilgan (A.Q.).

–b (-ib): Shifokor bo'la turib, bu kasalikning xafli ekanligiga aqli yetmabdi-da, - dedi Mirsalim («Mushtum»).

–gan (i) holda: Oftob toblanib turgan holda, atayin jo'namadim.

–di hamki: Oradan ikki oy o'tdi hamki, inspektor chiqmadi (A.Q.).

–dan qat'iy nazar: Reja bajarilganligidan qat'iy nazar, paxta oxirgi chigitgacha olinishi kerak.

Buyruq maylidagi fe'lning inkor formasi: -masin, -maylik, -mang kabilar: Davlatimiz naqadar badavlat va qudratli bo'lmasin, siz bilan biz, ayniqsa, biz cho'l o'zlashtiruvchilar isrofgarchilikka yo'l qo'ya olmaymiz (As.M.).

To'siqsiz ergash gap kesimi tasdiq va inkor formasida takrorlanib, bosh gapga bog'lanadi:

Derazadan boqmangiz, boshim yalang,

Boqsangiz – boqmasangiz qoshim qalam. (O.).

Sensan sevarim, xox inon, xox inonma,

Qondir jigarim, xox inon, xox inonma. (Atoi).

–mi. Bunda –mi bilan shakllangan kesimlar uyushgan bo'ladi: Bu gap hazil ekanmi, rost ekanmi, uch-to'rt oy o'tib, bobomning uyida ming'illab gapiradigan kampir paydo bo'ldi.

To'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplarning ergash komponenti tarkibida ba'zan harakat miqdorini kuchaytirish, qabartirib, bo'rtirib ko'rsatish uchun qancha, qanchalik, nechog'lik, naqadar so'zlari qo'llaniladi: qancha tirishsam ham, Ellar meni aldab ketadi (H.O.).

Bu gaplar naqadar shirin, negadir yoqimli bo'lmasin, Qalandarov har nechuk ko'tarilgan bolta, deb qaradi. (A.Q.)

To'siqsiz ergash gap ko'pincha bosh gapdan oldin, uslubiy talab bilan bosh gapdan keyin yoki uning o'rtasida kelishi ham mumkin;

Dunyo go'zal ko'rinar menga, o'zi qancha eski bo'lsa ham.

O'tgan bo'lsa hamki qancha shonli zamonlar,

Bizni davrimizdek davron bo'lmagan (Qo'shiq).

Ikkita sodda gapdan tuzilagan. Birinchi komponent to'siqsiz ergash gap, ikkinchi komponent bosh gap. Ergash gap bosh gapga – sa hamki formasi bilan birikkan bog'lovchi ergash gap tarkibida, ergash gap birinchi, bosh gap ikkinchi o'rinda keladi.

Nazorat savollari:

1. Ega ergash gapning ta'rifini ayting.
2. Ega ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar.
3. Ega ergash gap qanday o'rinishadi.
4. Kesim ergash gapga ta'rif bering.
5. Kesim ergash gap bosh gapdagi qanday so'zlarni izohlab kelishi mumkin.
6. Kesim ergash gaplar bosh gapga nisbatan qanday joylashadi.
7. To'ldiruvchi ergash gapning ta'rifini ayting
8. To'ldiruvchi ergash gap qanday o'rinishadi. Payt ergash gapning ta'rifini ayting.
9. Shart ergash gap qanday mazmunni anglatish uchun xizmat qilad
10. O'rin ergash gap bosh gapga nisbatan qanday joylashadi.
11. Shart ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalarni ayting.
12. Payt ergash gap bosh gapga qanday vositalar yordamida bo'g'lanadi.
12. O'rin ergash gapli qo'shma gaplarda qanday nisbiy so'zlar qatnashishi mumkin.
13. Nomustaqil kesim ergash gapning qaysi turida qatnashadi.
14. To'siqsiz ergash gapning ta'rifini ayting.
15. To'siqsiz ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalarni ayting.
16. To'siqsiz ergash gap bosh gapga nisbatan qanday joylashadi.
17. Natija mazmunini ifodalovchi ergash gaplar qanday belgilarga ega bo'ladi.
18. Natija ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar qaysilar.
19. Sabab ergash gapning ta'rifini ayting.
20. Sabab ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalarni sanab bering.
21. Maqsad ergash gap qanday belgilarga ega bo'ladi.
22. Maqsad ergash gapda bog'lovchi vazifasini qanday vositalar bajaradi.
23. Sabab va maqsad ergash gaplarning o'rinishuvini misollar yordamida tushuntiring

2-Mavzu bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari.

1. Mavzu bo'yicha qo'shimcha adabiyotlardan va o'quv qo'llanmalaridan o'rganish va fikrlarini yozma ravishda bayon qilish (2 soat).
2. Matndagi "Ergash gapli qo'shma gaplar"ning turini aniqlash, bog'lovchi vositalarni ko'rsatish. 4 tasini tahlil qilish.
1. Karvon ahllari bir manzilga qo'nganlaridan so'ng, Alisherning yo'qligidan xabardor bo'ldilar. 2. Elning, yurtning baxti barqaror bo'lsa, saltanat ham bexatar bo'lur. 3. Vodiylarni yayov kechganda, bir ajib his bor edi manda. 4. Ko'kda momaqaldiraq tinmasa ham, picha-picha uxlab oldik. 5. Qop-qorong'i tun shu qadar tinch va sokin edi-ki, hatto har bir sharpa ham bahuzur eshitilib turar edi. 6. Havoni bulut qoplab, yomg'ir tomchilab turibdi. 7. Tananing kasali bo'lganidek, xulq-atvorning ham xastaligi bo'ladi. 8. Beda orasi juda issiq, go'yo quyoshning butun olovi beda ichida yashiringanday. 9. Mashina maktab yoniga kelib to'xtaganda, quyosh endigina tog' orqasidan ko'tarilib kelayotgan edi. 10. Kimki o'z burchini unutsa, u ko'p xatoga yo'l qo'yadi. 11. Biz shunday kutubxona barpo qilaylikki, butun el oldida manzur va mo'tabar bo'lsin. 1. Qo'shimcha adabiyotlardan "Ergash gapli qo'shma gaplar" haqidagi ma'lumotlarni o'qish va olingan ma'lumotlar bo'yicha fikrlarni yozma ravishda bayon qilish (2 soat).

2. Matndagi “Ergash gapli qo’shma gaplar”ning tarkibidagi bosh va ergash gaplarni aniqlash, bog’lovchi vositalarni ko’rsatish.

1. Kimki tiliga ehtiyot bo’lsa, boshi omon bo’ladi.
2. U birinchi ko’rishdayoq bildiki, Gulnor zaharlangan edi.
3. Shunday davr ediki, ovqatim ham , uyqum ham kitob edi.
4. Manzuraxon ertasi kechqurun jo’naydigan bo’lgani uchun, xoli o’tirish kunduzi soat birga tayinlandi.
5. Bola-chaqalari bo’lmaganidan, uylari biznikiga o’xshash to’s-to’polon emas, yig’inchoqlik.
6. Sen otash ichida urasan javlon, Dushman qolmasin deb sevgan elimda.
7. Aravakash yelkasini gupchakka tirab itarsa ham, ot to’rt oyog’i yerga mixlangandek, qimir etmas edi.
8. Xotini yana valdiramasligi uchun, yumshoq gapirdi.
9. Yana o’n yil o’tar, go’yo havodan guvillab o’tgandek o’nta samolyot.
10. Bundan chiqdiki, biz zolim boy-u, siz batrak ekansiz-da!

Adabiyotlar

1. Abdurahmonov G’. Qo’shma gap sintaksisi asoslari. T., “Fan”, 1958 y.
2. G’ulomov A. G’, Asqarova M. Hozirgi ozbek adabiy tili. T., 1987 y.
3. Mamajonov A. Qo’shma gap stilistikasi. T., “Fan”, 1990 y.
4. Akademiya nashri. Hozirgi o’zbek adabiy tili, 2-kitob, Sintaksis, Toshkent, ”Fan” nashriyoti, 1966 y.
5. Abdurahmonov G’, Suloymonov X., Xoliyorov H., Omonturdiyev J., Hozirgi o’zbek adabiy tili. Sintaksis. 1979 y.
1. Sayfullayeva R. Uyushuvchi birliklar va ularni uyushtiruvchi elementlar. T., ”Fan”, 1990 y.
3. O’zbek tili grammatikasi. II tom. Sintaksis. T., 1976 y.
5. Mamajonov A. Qo’shma gap stilistikasi. T., «Fan», 1990 y.
4. Abdurahmonov. G’. Ergash gapli qo’shma gaplar masalasi o’zbek tili va adabiyoti masalalari, 1960 y. 4-son.
5. Abdurahmonov G’. O’zbek tili grammatikasi. T., «O’qituvchi», 1996 y.
6. Asqarova M. Hozirgi zamon o’zbek tilida qo’shma gaplar. T., “Fan”. 1960 y.
7. Berdaliyev A. Ergash gapli qo’shma gap konsruksiyalarida semantik – signifikativ paradigmatica. T., “Fan” nashriyoti, 1989 y.
8. Asqarova M. O’zbek tilida ergashish formalari va ergash gaplar. T., “Fan” nashriyoti, 1966 y.
9. Nurmonov A., Mahmudov A., Solixo’jayeva S., O’zbek tilining mazmuniy sintaksisi. T., 1992 y.
10. Rustamov H. Ergash gaplarning tasnifida ba’zi masalalar. O’zbek tili va adabiyoti masalalari, 1959 y, 3-son.
11. Akademiya nashri o’zbek tili grammatikasi. T., 1975 y, II

3- mavzu: „Aralash turdagi qo'shma gap haqida tushuncha va uning komponentlari bog'lanish usullari“

Reja:

1. Murakkab qo'shma gap haqida ma'lumot
2. Bir necha ergash gapli qo'shma gaplar
3. Aralash turdagi qo'shma gap.

Mavzuga oid tayanch va iboralar. Murakkab qo'shma gap, bir necha ergash gapli qo'shma gap, ketma-ket ergashish, birgalik ergashish, aralash aloqali murakkab qo'shma gap.

1-reja bo'yicha dars maqsadlari:

Talabalarni murakkab qo'shma gaplar, ularning tuzilishi, qismlarining bir-biriga bo'lanish usullari, joylashish tartibi haqida ma'lumotlar bilan tanishtirish

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Murakkab qo'shma gaplarning qoidasini biladi va izohlab bera oladi.
2. Bir necha ergash gapli qo'shma gaplar qoidasini biladi va izohlab bera oladi.
3. Bir necha ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gaplarning ketma-ket va birgalik ergashuvlarini aniqlay va izohlay oladi.
4. Aralash turdagi qo'shma gaplar, ularning tuzilishi, qismlarining joylashish o'rnini aniqlay oladi va izohlaydi.

1-reja bayoni.

Uch va undan ortiq sodda gaplarning mazmun va grammatik jihatdan birikishidan tashkil topgan, umumiy bir yaxlit tugallanuvchi intonatsiyaga ega bo'lgan sintaktik konstruksiyalar murakkab qo'shma gap deyiladi.

Qo'shma gapning murakkab shakli uning sodda (ikki komponentli) formasida: 1) komponent miqdorining ko'pligi. 2) unda birdan ortiq bog'lanish usulining mavjudligi bilan ajralib turadi.

Misollar shuni ko'rsatadiki, komponentlarning o'zaro grammatik munosabatiga ko'ra murakkab qo'shma gaplar uch guruhga ajraladi:

Bog'lanish (tenglanish) yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap, ergashish (tobelanish) yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap, aralash aloqali murakkab qo'shma gap.

II. Uch va undan ortiq sodda gaplarning mazmun va grammatik jihatdan teng munosabatga kirishishdan tashkil topgan sintaktik konstruksiyalar bog'lanish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap deyiladi. Bu turdagi qo'shma gap komponentlarining birikishida ikki xil usul bor: 1) komponentlarning faqat intonatsiya bilan birikadi: bunda bog'lovchi yoki bog'lovchi funksiyasidagi grammatik formalar qatnashadi: 2) komponentlar ham teng bog'lovchilar, ham teng intonatsiya (aralash usul) bilan birikadi; bunda teng bog'lovchilarning o'rnini har xil: biriktiruv va zidlov bog'lovchilari ikkita komponentni juftlab bog'lash uchun gap o'rtasida, ikki komponentlarni tugatganligini ko'rsatish uchun oxirgi komponentning oldida qo'llaniladi.

Tenglashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gaplarning quyidagi shakllarini ko'rsatamiz: Goh o'tmish azoblari esiga tushadi, goh o'z boshlig'ining uquvsizligidan kuyunadi, goh o'z oldiga qo'yilgan maqsad uni kelajak sari etaklaydi.

Maktabda intizom bo'sh, o'qituvchilarning obro'yi yo'q, davomat juda past, har yili maktabga tortiladigan qizlarning faqat ikki-uch foizigini o'ninchi sinfni bitiradilar, bu ahvol ko'p darajada Qalandarov bilan bog'liq ekan (A.Q.). Shijoatli va kuchli botirlar – urushda; xotin va farzandlar kambag'allikda; do'st va birodarlar boshga kulfat tushganda, taniladilar. (X.D.)

III. Birdan ortiq ergash gaplarning bosh gap bilan birikishidan tashkil topgan sintaktik konstruksiyalar ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap deyiladi: Bahor kelsa, gullar ochilsa, qirlar maysalar bilan qoplansa, bu joylar juda go'zal bo'ladi (S.). Tilagim shuki, biringiz olim bo'lib, tarix yozing, biringiz shoir bo'lib, yurtini kuylang («G'uncha»).

Aniqllovchi ergash gap uyushadi: Sen butun imkoniyat va qobiliyatingni ishga solib, shunday bir kitob yozki, unda ham jiddiy va hazil-mutoyiba so'zlar, ham hikmat va falsafaga oid fikrlar

mujassamlashgan bo'lsin, aqlli odamlar undan ham hikmat darsi olsinlar, ham kulgidan o'zlarini to'xtata olmasinlar («K.D.»).

To'ldiruvchi ergash gap uyushadi: har holda shuni bilishing kerakki, daraxtni kessalar, uning ildizidan bir shoxi ko'karib, uning o'rnini bosadi, qilich va o'q yarasi bitib ketadi, lekin til yarasi hech vaqt tuzalmaydi («K.D.»). Ravish ergash gap uyushadi: Qorni ochib, kuchi qochib, keladi bo'ri (Masal).

O'lchov-daraja ergash gap uyushadi: O'tirishimiz qanchalik sodda, dasturxon qanchalik faqirona bo'lsa, suhbatimiz shunchalik samimiy va shirin bo'ladi («K.D.»).

Chog'ishtirish-o'xshatish ergash gaplar uyushadi: Quyosh tabiatga jon kiritgandek, er insonga rizqu-ro'z berganidek, ona ham o'z farzandiga qalb-qo'rini, mehrini baxshida qiladi («Saodat»).

Sabab ergash gap uyushadi: Men bu masalani shuning uchun keltirdimki, hech vaqt dushmani mensimaslik kerak emas, birinchi bo'lib urush boshlash aqlli kishining ishi emas («K.D.»).

Maqsad ergash gapli qo'shma gap uyushadi: Yurtimiz obod bo'lsin deb, xalqimiz shoyi kiysin deb, tut ko'chatin ekamiz.

Payt ergash gap uyushadi:

Yigitlar sen uchun jangga kirganda,
Botirlar osmonda berganda jon,
Ko'zidan qon oqqan yovni ko'rganda,
Sening yengishingga keltirdim iymon (H.O.)

O'rin ergash gap uyushadi; qaerda mehnat yaxshi tashkil qilingan bo'lsa, o'sha erda intizom yaxshi bo'ladi.

Shart ergash gap uyushadi:

Yursa agar tomirda qoning,
Aziz bo'lsa bir parcha noning,
Kerak bo'lsa nomus-vijdoning,
Qo'lingga qurol ol.

Nazorat savollari:

Qo'shma gapning qanday turi bir necha ergash gapli qo'shma gap nomi bilan ataladi?

Bir necha ergash gapli qo'shma gaplar tarkibi nimalardan tashkil topadi?

Ergash gaplar bosh gapga qanday usullar yordamida ergashadi?

Birgalik ergashish usuli haqida gapiring.

Ketma-ket ergashish usulida ergash gaplar bosh gap bilan qanday aloqada bo'ladi?

Aralash ergashish usulini tushuntirib bering.

Birinchi, ikkinchi, uchinchi darajali gaplar deganda nimalar nazarda tutiladi?

Analitik va sintetik yo'l bilan ergash gapning bosh gapga bog'lanishi qanday yuzaga chiqadi?

Uyushgan ergash gaplar qanday xususiyatlarga ega bo'ladi?

Uyushmagan ergash gaplar-chi?

Bir necha ergash gapli qo'shma gaplarning qaysi turlari periodik nutq ko'rinishida shakllangan bo'ladi?

Bir tipli birgalik ergashishga misol keltiring.

Turli tipli birgalik ergashishda ergash gaplarning qaysi turlari ishtirok etadi?

Umumiy ergashish deganda nimani tushunasiz.

Bo'lakka ergashish deganda-chi?

Bir necha ergash gapli qo'shma gaplarda bosh gaplar ko'proq qaysi pozitsiyani egallashi mumkin?

Ergash va bosh gaplarning shartli chizma belgilari qanday shakllardan iborat bo'ladi?

Bir necha ergash gapli qo'shma gaplar strukturasi yana nimalar hisobiga murakkablashuvi mumkin? Ular qanday nomlanadi?

Bir necha ergash gapli qo'shma gaplar bo'yicha qaysi tadqiqotchi olimlar ko'proq shug'ullanganlar.

Bir necha ergash gapli qo'shma gaplar mavzusi bo'yicha qanday qo'shimcha adabiyotlarni bilasiz?

2-reja bo'yicha dars maqsadlari:

Talabalarni bir necha ergash gapli qo'shma gaplar, ergash gaplarning bosh gapga bog'lanish usullari, joylashish o'rinlari haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Bir necha ergash gapli qo'shma gapning ta'rifini biladi va izohlab bera oladi.
2. Bir necha ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gapning bosh gapga bog'lanish usullarini biladi va aytib bera oladi.
3. Ketma-ket ergashgan ergash gaplarni aniqlay oladi va izohlab beradi.
4. Birgalik ergashuvli ergash gaplarni aniqlay oladi va izohlab beradi.

2-reja bayoni :

Fikrni to'la atroflicha ifodalash maqsadida tarkibida bir necha ergash gapi mavjud bo'lgan birdan ortiq ergash gaplarning ishtirok etishi hisobiga orta boradi.

Bir necha ergash gapli konstuktsiyalarda ergash gaplar oddiy ergash gapli qo'shma gap tarkibidagi ergash gapdan, asosan, farq qilmaydi. Farq ergash gaplarning miqdorida bo'ladi. Bir necha ergash gapli qo'shma gap tarkibida sodda gaplarning hammasi bir bo'lgani holda, grammatik va logik butunlikni tashkil etadilar, umumiy intonatsiyaga ega bo'lib, tugal bir fikrni reallashtiradilar.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida ergash gaplarning hamma turi takrorlanib kelib, murakkab konstruktsiya hosil qiladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida bir necha ergash gapli qo'shma gaplar tarkibidagi ergash gaplar bosh gapga uch xil yo'l bilan bog'lanadi:

Birgalik ergashish.

Ketma-ket ergashish.

Aralash ergashish.

Birgalik ergashishni yuzaga chiqaruvchi qo'shma gap tarkibidagi ergash gaplar bosh gapning biror bo'lagini yoki uning umumiy mazmunini to'ldirib kelishi mumkin. Shunga ko'ra, birgalik ergashish ikkiga bo'linadi:

Umumiy ergashish.

Bo'lakka ergashish.

Birinchi holatda ergash gaplar bosh gapning umumiy mazmuniga aloqador bo'lib, uni umuman izohlaydi – bu umumiy ergashish deyiladi. Ikkinchi holatda shunday bo'ladiki, ergash gaplar bosh gapning biror bo'lagiga bog'lanib, uning mazmunini to'ldiradi. Bunday ergashishni bo'lakka ergashish deb yuritiladi. Quyidagi umumiy va bo'lakka ergashishni yuzaga chiqaruvchi birgalik ergash gaplar, odatda, bir tipli yoki turli tipdagi ergash gaplardan iborat bo'ladi. Shunga ko'ra umumiy birgalik ergashish ikkiga bo'lib o'rganiladi:

Bir tipli umumiy birgalik ergashish.

Turli tipli umumiy birgalik ergashish.

Bir tipli umumiy birgalik ergashish. Bir tipli umumiy birgalik ergashishda ergash gaplarning hammasi bil xil xarakterda bo'ladi. Umumiy ergash gaplar bosh gapning struktural-grammatik markaziga – ega va kesimiga to'liq, bog'lanadi, uning butun sostaviga aloqador bo'ladi.

Birgalik ergash gaplar o'zaro parallel holatda joylashadilar. Shuning uchun ham ayrim tekshiruvchilar birgalik ergash gaplarni «parallel» ergash gaplar (parallelnoe pridatochnoe), bu xil ergashishni esa «parallel ergashish» (parallelnoe podchinenie) deb izohlaydilar. Hozirgi o'zbek adabiy tilida umumiy o'zgarishni hosil qiluvchi bir tipli birgalik ergash gaplar quyidagilar:

Uyushgan payt ergash gaplar:

Tuman g'arb tomonga uchib ketganda,

Karvon o'z yo'liga safar etganda.

Unumsiz sahroda bo'lib g'amgin dog',

Uch ko'rkam xurmodan kul qoldi oppoq. (Lermontov).
Huri, Zaynab, qosh qorayganda,
Kech qop-qora choyshab yoyganda,
Ichkariga kirib keldilar,
Va Anora salom berdilar. (Hamid Olimjon).
Uyushgan shart ergash gaplar:

Agar seni do'st aldasa,
Qalbing urushdan charchasa,
Ko'ngling bog'i so'lar bo'lsa,
O'sha yiroqlarda bot,
Meni qilgil yod. (Lermontov).

Uyushgan ravish ergash gaplar: Kech kirib, tog'dan esgan mayin shabada ham tinib, xirmon jim-jit bo'lib qoldi. (Ch.Aymatov.)

Bunday konstuktsiyalarda ergash gapning kesimi tarkibida keluvchi yordamchi fe'l uyushgan ravish ergash gaplarning faqat bittasida qo'llanishi mumkin, lekin u har ikkala ergash gapning kesimiga taalluqli bo'ladi:

Turmush xalqning farovon, o'lkamiz obod bo'lib,
Qahramon cho'llarda yashnar bog'u bo'ston, Yangi yil. (Pushkin)

Uyushgan maqsad ergash gaplar:

Baxtim bormi ekan deb,
Menga yormi ekan deb,
Kela berdilar bari
Kattakon chinor sari (H.Olimjon).

Uyushgan sabab ergash gaplar:

Yerda yashaydigan barcha kishilar
Moskva markaz, deb ataydilar, chunki:
Kishilik yo'lining charog'bonu u,
Barcha mazlumlarning mehriboni u,
Tinchlikning pospon u (G'.G'ulom)

Yuqoridagi qo'shma gapda uyushgan ergash gaplarni bosh gapga biriktiruvchi grammatik vosita faqat bir yerda qo'llanib, («chunki» bog'lovchisi) hamma ergash gaplar uchun umumiydir. Uyushgan to'siqsiz ergash gaplar:

Oldda – ortda va o'ngu so'lda
Kesilsa ham yo'lim; ko'kragim
O'q yeb, qonga belanganda ham,
Bo'sh kelmadim, yoshim to'kmadim. (Muso Jalil).

Uyushgan o'xshatish ergash gaplar: har narsaning ma'lum qonuniyati bo'lganidek, har narsa va hodisani taqazo qiladigan omili bo'lganidek, do'stlik ham shundaylardandir. (E.Vohidov).

Umumiy ergashishni yuzaga chiqaruvchi birgalik ergash gaplar sonini ma'lum miqdor bilan chegaralab bo'lmaydi, ularni hohlagancha davom ettirish mumkin. Ergash gap qancha takrorlanib kelsa, bosh gap kesimining ma'nosi ham shuncha ko'p ochiladi:

Agar bo'lmasa qishi yozi,
Chiqmasa hech ko'cha-kuyga ovozi,
Boshlariga hech tushmasa mojaro,
Hamma joyda gap qilmasa fuqaro,
El ichida chiqarmasa yomon ot,
Qarindosh qilmasa har joyda mot.
Va qilmasa otasini sharmanda,
Onasini nomus uyatga banda,
Qilmasa u, bizga o'zi ulug' baxt. (H.Olimjon).

Turli tipdagi umumiy birgalik ergashish: Ergashishning bu turini hosil qilishda mazmunan turli xil funktsiyasida keluvchi ergash gaplar ishtirok etadi. Lekin ergash gaplar turli tipda bo'lishidan qat'iy nazar, ular bosh gapning kesimiga bog'lanish hamda uning umumiy mazmuniga tobe bo'lishi lozim. Shunday vaqtdagina turli tipli umumiy ergashish holati yuzaga chiqadi.

Turli tipli birgalik ergashishda ergash gaplar bosh gapga alohida-alohida bog'langani bilan, formasiga ko'ra, bir xil bo'lmagani uchun, uyushiq ergash gaplar emas, uyushmagan ergash gaplar hisoblanadi:

a) payt va to'siqsiz ergash gaplar: Paxta terimi boshlangach, havo ochiq bo'lsa ham, ko'pchilik kolxozlar sushilkalarni tayyorlab qo'ydilar. b) payt va o'xshatish ergash gaplar: Raisning nomini tilga olishim bilan, Saltanat, xuddi chayon chaqqanday, o'rnidan sakrab turdi. (O.Yoqubov); v) shart va payt ergash gaplar: Agar bir ilojini qilib, uni qishdan omon-eson saqlab chiqsam, Chotqolga borganimizdan keyin, baxtimiz ochilib ketarmidi (Ch.Aytmatov). Agar siz rozi bo'lsangiz, shu bugun tong otmasdanoq, ChEKA sizni qamaydi (G'.G'ulom). g) o'xshatish va payt ergash gaplar:

Bu kecha go'yo butun jahonning
Sevinchi xonamga yig'ilgan kabi,
Yorug' istiqboldan so'z ochilganda,
Kulguga ko'mildi do'stlarning labi (Uyg'un).

Bo'lakka ergashishda ergash gaplar semantik jihatdan bosh gapning biror bo'lagiga aloqador bo'lib, uning ma'nosini konkretlashtiradi. Bunday ergashish bo'lakka ergashish deyiladi. Masalan: U nima uchun kurashgan bo'lsa, nimagaki mehnati singan bo'lsa, zoe ketmadi (S.Ahmad).

Kimki chekkan bo'lsa sevgi dardini,
Kimniki to'ydirgan bo'lsa kulfat g'am,
Ortiq, qo'zg'ata olmas uning qalbini
Umid orzularu hayajon hech dam (Lermontov).

Bo'lakka ergashishni tashkil etgan birgalik ergash gaplarning bosh gapga bog'lanish holati orqali shunday ifoda etiladi:

Nazorat topshiriqlari:

1. Qo'shma gapning qanday turi bir necha ergash gapli qo'shma gap nomi bilan ataladi?
2. Bir necha ergash gapli qo'shma gaplar tarkibi nimalardan tashkil topadi?
3. Ergash gaplar bosh gapga qanday usullar yordamida ergashadi?
4. Birgalik ergashish usuli haqida gapiring.
5. Ketma-ket ergashish usulida ergash gaplar bosh gap bilan qanday aloqada bo'ladi?
6. Aralash ergashish usulini tushuntirib bering.
7. Birinchi, ikkinchi, uchinchi darajali gaplar deganda nimalar nazarda tutiladi?
8. Analitik va sintetik yo'l bilan ergash gapning bosh gapga bog'lanishi qanday yuzaga chiqadi?
9. Uyushgan ergash gaplar qanday xususiyatlarga ega bo'ladi?
10. Uyushmagan ergash gaplar-chi?
11. Bir necha ergash gapli qo'shma gaplarning qaysi turlari periodik nutq ko'rinishida shakllangan bo'ladi?
12. Bir tipli birgalik ergashishga misol keltiring.
13. Turli tipli birgalik ergashishda ergash gaplarning qaysi turlari ishtirok etadi?
14. Umumiy ergashish deganda nimani tushunasiz.
15. Bo'lakka ergashish deganda-chi?
16. Bir necha ergash gapli qo'shma gaplarda bosh gaplar ko'proq qaysi pozitsiyani egallashi mumkin?
17. Ergash va bosh gaplarning shartli chizma belgilari qanday shakllardan iborat bo'ladi?
18. Bir necha ergash gapli qo'shma gaplar strukturasi yana nimalar hisobiga murakkablashuvchi mumkin? Ular qanday nomlanadi?

19. Bir necha ergash gapli qo'shma gaplar bo'yicha qaysi tadqiqotchi olimlar ko'proq shu?ullanganlar.
20. Bir necha ergash gapli qo'shma gaplar mavzusi bo'yicha qanday qo'shma adabiyotlarni bilasiz?

3-reja bo'yich dars maqsadlari:

Talabalarni Aralash turdagi qo'shma gaplar va ularning bog'lanish usullari, joylashish o'rinlari haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Aralash turdagi qo'shma gap ta'rifini biladi va bu gaplarni matnda aniqlay oladi;
2. Aralash turdagi qo'shma gapda teng bog'lanishli gaplarni aniqlay oladi.
3. Aralash turdagi qo'shma gap tarkibida tobe bog'lanishli gaplarni aniqlay oladi.

3-reja bayoni:

Komponentlarning ham tenglanish, ham tobelanish munosabatidan tashkil topgan sintaktik konstruktsiyalar aralash aloqali murakkab qo'shma gap deyiladi. Qo'shma gaplarning bu turi bog'langan va ergash gapli qo'shma gaplarni o'z ichiga olganligi uchun aralash qo'shma gap deb ham yuritiladi.

Aralash aloqali murakkab qo'shma gaplarning quyidagi modellarini ko'rsatamiz:

Birinchi ergash gap o'zidan keyingi ikkita teng aloqali bosh gaplarning har qaysisiga alohida-alohida tobelanadi: Bu sifatlarning birisi bir odamda mujassam bo'lsa, dunyodagi eng buyuk saodat ham uni gangitib qo'ya olmaydi, eng katta baxtsizlik ham uni sarosimaga sola bilmaydi(«K.D.»).

Ikkita ergash gapli qo'shma gap teng aloqaga kirishadi:

Bahor kelsa ochilar gullar,
Gul ochilsa, sayrar bulbullar (F.).

Ikkitadan ortiq ergash gapli qo'shma gaplar teng aloqaga kirishadi:

Ko'kda parvoz etsa lochin, yerga kirgay zog'lar;
Kishnagan ot o'tsa cho'ldan, qo'zg'alur tuproqlar;
Qonga to'lgay, jangga botir kirsar, so'lu bog'lar(Habibiy).

Quyidagi gapda oltita ergash gap o'zlaridan keyingi teng aloqali ikkita bosh gapning har qaysisiga alohida ergashib so'ngra bir butun holda birinchi o'rinda kelgan bitta bosh gapga tobelangan: Olimlar debdurlarki, kimning qosh oralig'i uzoq bo'lsa, o'ng ko'zi chap ko'zidan kichikroq bo'lsa va tez-tez yumib ochsa, burni chap tomonga bir oz qiyshaygan bo'lsa va uchida uchta tuk bo'lsa, o'zi hamisha yerga qarasa, undan odamga fisqi-fasod hamroh, hiyla va makr yo'ldoshdir.

3-reja bo'yicha nazorat topshiriqlari:

1. Aralash turdagi qo'shma gaplarning ta'rifini ayting.
2. Aralash turdagi qo'shma gaplarda qanday qismlar teng bog'lanishi mumkin?
3. Aralash turdagi qo'shma gaplarda qanday qismlar tobe-hokim munosabatida bo'lishi mumkin.

3-mavzu bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari.

1. Qo'shimcha adabiyotda mavzu bo'yicha ma'lumotlarni o'zlashtirish va fikrlarni yozma bayon qilish (2 soat).
2. Matndagi aralash turdagi qo'shma gaplarni tahlil qilish: Agar yerlar traktor bilan yaxshilab haydalsa, mehnat unumi ortadi. Daraxtlar ko'karsa, maysalar yashnasa, bu yerlar yana ham chiroyli bo'ladi. Qutidor do'koniga jo'naganidan keyin, Oftoboyim To'ybekani mehmonxonaga buyurdi va o'zi xamir qilishga o'tirdi. Bu uy oldin bedaxona bo'lganidan, darchasi ham yo'q, tokchasi ham yo'q, toqisi ham yo'q edi. Kamtar bo'lsang obro' ortar; gerdaysang, ensa qotar. Agar havo sovib ketmasa, qor yog'masa, uni ko'rgani boramiz. Quyosh chiqib, qirovlar eriy boshladi, havoga bug' ko'tarildi. Kishilar istaydiki, yer yuzida tinchlik bo'lsin, hamma baxtli yashasin. Yomg'ir yog'masa, ekskursiyaga boramiz; yomg'ir yog'sa, shanbalik uyushtiramiz. Kimki birovga yomonlik qilsa, o'zi ham uzoq yashamaydi, umri azobda o'tadi.

Adabiyotlar.

1. Abdurahmonov G'. Qo'shma gap sintaksisi asoslari. T., "Fan". 1958 y.
2. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1987 y.
3. Mamajonov A. Qo'shma gap stilistikasi. T., "Fan". 1990 y.
4. Akademiya nashri. Hozirgi o'zbek adabiy tili, 2-kitob, Sintaksis, Toshkent, "Fan" nashriyoti, 1966 y.
5. Abdurahmonov G'. Suloymonov X. Xoliyorov H. Omonturdiyev J. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. 1979 y.

4-mavzu: Bog'lovchisiz qo'shma gap. Bog'lovchisiz qo'shma gapning bog'langan va ergashgan qo'shma gap bilan sinonimligi.

Reja:

1. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar haqida umumiy malumot.
2. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasidagi payt, qiyoslash, shart, ziddlik, o'xshatish, izohlash munosabatlari.
3. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda tinish belgilari.

1-reja bo'yicha dars maqsadlari.

Talabalarga bog'lovchisiz qo'shma gaplar, ularning tuzilishi haqida umumiy ma'lumot berish. Talabalar nutqida bog'lovchisiz qo'shma gaplarni to'g'ri va o'rinli qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Bog'lovchisiz qo'shma gapning ta'rifini biladi va izohlab beradi.
2. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlarini ajrata biladi.
3. Bog'lovchisiz qo'shma gapni bog'langan qo'shma gap, ergash gapli qo'shma gaplardan farqlay oladi.

1-reja bayoni:

Ikki va undan ortiq sodda gaplarning grammatik bog'lovchilarsiz birikuvchida tuzilgan qo'shma gap tiplari bog'lovchisiz birikuvida tuzilgan qo'shma gap tiplari bog'lovchisiz qo'shma gaplar deyiladi:

Masalan; Botirlari kanal qazadi,
Shoirlari she'rlar yozadi (H.O.).

Yuragida qanday dardlar bor – mana bu menga sir (O.).

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning tuzilishida eng asosiy vosita intonatsiyadir. Intonatsiya bog'lovchisiz qo'shma gaplarda turli ma'no ottenkalarining ifodalanishida asosiy faktor hisoblanadi.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar bog'langan yoki ergash gapli qo'shma gaplarning bog'lovchisiz varianti emas, balki qo'shma gapning alohida tipidir. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasiga teng yoki ergashtiruvchi bog'lovchilarni majburan kiritib bo'lmaydi. Aks holda, gap konstruktsiyasi o'zgaradi; yopiq konstruktsiya hosil bo'ladi. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar esa ochiq konstruktsiya hisoblanib, mazmunan o'zaro birikkan bir necha tipli sodda gaplardan tashkil topadi. Qor va shamol kuchaya bordi, tashqarida qishni va qorni sog'ingan qarg'alarning qag'illashlari... (O.).

Qo'shma gapda komponentlarni biriktiruvchi ega yoki ergashtiruvchi bog'lovchilar qo'llanmagan o'rinlarda leksik va intonatsion vositalarning roli ortadi.

Shu sababdan ham bog'lovchisiz qo'shma gap qismlarini biriktirishda ayrim leksik elementlarning, olmosh va mavhum ma'noli so'zlarning qo'llanishi, umumiy va ikkinchi darajali bo'laklarning takrorlanib kelishi kabilar bog'lovchisiz qo'shma gap turini shakillanishi hamda mazmun munosabatlarini yuzaga chiqishi uchun vosita funksiyasini bajaradi.

Shuni aytib o'tish kerakki, biz yuqorida sanab o'tgan vositalar keng ma'noda sintaksis bobida bog'lovchilar hisoblangani uchun ham, shu vositalar yordamida tuzilgan qo'shma gap turiga

nisbatan qo'llangan «bog'lovchisiz» atamasi shartli ishlatiladi. (bu o'rinda eslatib o'tish kerakki, ba'zi darsliklarda bog'lovchisiz qo'shma gaplarning «bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap» atamasi ostida yuritilishi ham bejiz emas.)

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning strukturasi.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarni tashkil etgan komponentlar turli xil tiplardan iborat bo'lishi mumkin. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarni tashkil etgan sodda gaplar, ko'pincha, darak gap shaklida bo'ladi:

Yaxshi yaxshiga yondoshtirar,
Yomon yo'ldan adashtirar (maqol).

Ba'zi bog'lovchisiz qo'shma gapning bir komponenti ritorik so'roq gaplardan iborat bo'lishi ham mumkin.

Chekinsinmi –yo'q, g'ururi yo'l bermaydi (O.).

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar ko'proq jonli nutqda qo'llanilganligi uchun ham, struktura jihatidan ancha erkin tuziladi.

1. Qo'shma gapning bir komponenti yoki har ikkisi bosh bo'lakli gapdan iborat bo'lishi mumkin:

Eshakni yaydoq minib bo'lmaydi – yiqitadi kishini (A.Q.) shaxssiz gap.

Kulib turgan baxtiga yuzni teskari burish – bu qanday nonko'rlik!

1-komponent – infinitiv gapdan iborat.

2. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlarida biri yoki har ikkisi to'liqsiz gaplardan iborat bo'ladi: Ahmoq xoriganini bilmas, ko'sa qariganini (maqol). Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi (To'liqsiz gap).

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarni tashkil etgan gaplarning har qaysisi, agar ular ikki sostavli gap bo'lsa, egasi bo'lishi shart. Umumiy egasi bo'lgan konstruksiyalar, ular qanchalik kengaymasin, qo'shma gap hisoblanmay, uyushiq bo'lakli yoki oborotli sodda gap sanaladi.

Nazorat topshiriqlari:

1. Bog'lovchisiz qo'shma gap haqida tushuncha.
2. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar strukturasi (tuzilishi) haqida gapirib bering
3. Bog'lovchisiz qo'shma gapni shakllantiruvchi asosiy vosita nima.
4. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlarini bog'lashda yana qanday vositalar ishtrok etadi.

Tayanch atama va iboralar:

Bog'lovchisiz qo'shma gap, intonatsiya, (ohang) bog'lovchisiz qo'shma gap strukturasi, bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari, payt munosabati, qiyoslash munosabati, zidlik munosabati, izohlash munosabati, qo'shma gaplarda sinonimiya.

2-reja bo'yicha dars maqsadlari:

Talabalarga bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida yuzaga keladigan turli xil munosabatlar turi haqida nazariy ma'lumot berish talabalar nutqida bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasidagi munosabatlarni to'g'ri ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Bog'langan qo'shma gap qismlari orasidagi munosabatlarni aniqlay biladi.
2. Bog'langan qo'shma gap tahlilini amalga oshira biladi.

2-reja bayoni:

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar ifodadaga mazmuniy munosabatiga ko'ra, yetti turga ajratiladi:

1. Payt munosabatini ifodalagan qo'shma gaplar.
2. Qiyoslash munosabatini ifodalagan qo'shma gaplar.
3. Shart-paytini ifodalagan qo'shma gaplar.
4. Sabab-natija ifodalagan qo'shma gaplar.
5. Zidlik munosabatini ifodalagan qo'shma gaplar.
6. O'xshatish munosabatini ifodalagan qo'shma gaplar.
7. Izohlash munosabatini ifodalagan qo'shma gaplar.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning katta gruppasini ma'lum bir paytda ro'y bergan yoki mavjud hodisa, voqea, xususiyat, holatni ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplar komponentlaridan anglashilgan voqea yoki hodisaning ro'y berish tartibiga ko'ra, ikki guruhga bo'linadi:

A) bir paytda bajariladigan harakat-holatni ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplar.

B) ketma-ket ro'y beradigan harakat-holatni ko'ratuvchi bog'lovchisiz qo'shma gaplar.

Birinchi turdagi qo'shma gaplarda komponentlardan anglashilgan harakat-holat bir paytda ro'y beradi: Mehnat kuldi, kurash zafar qozondi. (H.O.)

Pazandasi yopadi shirmon,

Qarilari kutadi mehmon. (H.O.)

Yuqoridagi konstruksiyani tashkil etuvchi har ikki predikativ birlik-komponentning kesimi bir xil zamon shakli va mazmunida, ya'ni hozirgi zamon fe'li orqali ifodalangan. O'zbek tilida hozirgi zamon mazmuni sifatdoshlar yoki ot kesimlari yordamida ham yuzaga chiqishi mumkin: Intizom tarbiya natijasidir, rejim tarbiya vositasidir (Ro'znomadan).

Qo'shma gaplardagi ish-harakatning bir paytda ro'y berishini yanada takidlash uchun sintaktik konstruksiyaning ikkinchi qismida shu payt, shu paytda, shu vaqt, shu vaqtda, shu zamon, shu zahoti kabi leksik elementlar qo'llanishi mumkin.

II. Ketma-ket ro'y beradigan harakat-holatni ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplar. Bunday qo'shma gaplarning komponentlaridan anglashilgan harakat-holat galma-gal ro'y bradi:

To'rga katta gilam soldilar,

O'yinchilar kelib qoldilar. (H.O.)

Qo'shma gap komponentlaridan anglashilgan ketma-ketlik mazmunini yanada kuchaytirish maqsadida, ikkinchi komponentning boshlanishida bir ozdan so'ng, undan keyin kabi so'zlar ishlatiladi: Avji ketish payti, bir ozdan so'ng tong otadi. (O.)

Bu tipdagi qo'shma gap komponentlarining kesimlar, asosan, bir xil zamon shakli va mazmunida bo'ladi: Kecha o'zining qora pardasini yig'ishtira boshladi, ufq oqara boshladi (I.R.).

Qiyoslash munosabatini ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplar.

Bog'lovchisiz qo'shma gapning bu turida komponentlaridan anglashilgan harakat-holat, belgi-xususiyat bir-biriga qiyoslanadi, solishtiriladi. Bundan maqsad ularning farqini ochish, bir-biriga mos yoki mos emasligini ko'rsatishdir.

Masalan: Bilagi zo'r birni yiqar,

Bilimi zo'r mingni yiqar (Maqol).

Bular rohatda, men hasratda yashayman (O.).

Qiyoslash munosabati qismlarning umumiy mazmuni, ayrim leksik elementlar-antonimlar orqali ko'zga tashlanib turadi: Yigit urushga ketdi, orqasida yor qoldi (H.O.).

Eridan ayrilgan yetti yil yig'lar,

Elidan ayrilgan o'lguncha yig'lar (Maqol).

Toqatliga tog'lar egar boshini,

Toqatsizning birovlar er oshini (Maqol).

Yuqorida keltirilgan misollarda qo'shma gap komponentlarining kesimlari bir xil zamon shakli va mazmunida qo'llangan.

Shart-payt munosabati: Davlat tinch - sen tinch (Maqol). Tegding - yutib yuboradi (Ertak). Kolxozchilarni biriktir-har birining yuragida bo'ron qo'zg'olonadi. (O.)

Bu turdagi qo'shma gaplarning birinchi komponenti ko'tariluvchi, ikkinchi qismi esa pasayib boruvchi intonatsiya bilan aytiladi.

Sabab-natija munosabati:

Seni ko'rdim o'ynadi yurak,

Bulbul kabi sayradi tilim. (U.)

Zidlik munosabati: Suv keldi - nur keldi. qo'shni keldi ko'mak keldi.

Izoh munosabati: Shuni yaxshi biling: o'chmas nomingiz,

O'chmas bu bog'lar bosgan izingiz (T.To'la).

Bog'lovchisiz qo'shma gapning va ergash gapli qo'shma gaplarga sinonim bo'lgan tiplari haqida.

Bog'lovchi qo'shma gapning shunday turlari borki, ular mazmunan bog'langan yoki ergash gapli qo'shma gaplarga sinonim bo'ladi. Bu esa nutqda qo'shma gapning istalgan turidan (muallif ixtiyori bilan) foydalanish imkoniyatini tug'diradi.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar ko'proq og'zaki nutqga xosdir, chunki u ixchamlashgan, soddalashgan bo'ladi, ortiqcha vositalar ishtirok etmaydi. Bog'langan va ergash gapli qo'shma gaplar esa ko'proq yozma nutqga xos bo'lib, stilistik maqsadlarda foydalaniladi.

Misollar shuni tasdiqlaydiki, payt munosabatini ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplar biriktirsh munosabatini ifodalovchi bog'langan qo'shma gaplarga, qiyoslash va izohlash munosabatini ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplar esa ergash gapli qo'shma gaplarga sinonim bo'ladi. Misollar: Bahorning butun hayotbaxsh ruhi yuzlarda barq urdi, dillar isib ketdi (As.M.).

Bu gap komponentlari o'rtasiga «va» bog'lovchisini kiritib, bog'langan qo'shma gap hosil qilish mumkin.

Mard bir o'lur – nomard yuz o'lar,
Mard bir o'lsa, nomard yuz o'lar. (Maqol).

Ko'zlar bor: boqqan dam
Ko'ngul huzur topadi;
Ko'zlar bor: boqqan dam
Dilga bulut yopadi (G.Nurillaeva).

O'zim har joydaman, ko'nglim sendadir.

O'zim har joyda bo'lsam ham (-da), ko'nglim sendadir. (og'zaki nutqdan)

Suv keldi – nur keldi. Su keldi, go'yo nur keldi
It hurar – karvon o'tar. It hurar, lekin karvon o'tar.

Badiiy adabiyotlar shoiralar bog'lovchini hijo talabi bilan ixtiyoriy ravishda ham qo'llash hollari bor: Novdalarni bezab g'unchalar,

Tongda aytdi hayot otini
Va shabboda qurg'ur ilk sahar
Olib ketdi gulning totini (H.O.).

Shuni ham aytib o'tish lozimki, komponentlari bir xil struktural qurilishga ega bo'lgan, bir tipli soddaga gaplardan tuzilgan bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari o'rtasida hamma vaqt ham bog'lovchi qo'yish mumkin bo'lavermaydi: Omborchi– erkak, ferma mudiri – erkak, do'kon mudiri – erkak (A.Qahhor).

Nazorat savollari:

1. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarni mazmunan necha turga bo'lib o'rganish mumkin?
2. Payt munosabatini ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplarga misollar keltiring.
3. Ziddlik munosabatini ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplarning xarakterli xususiyatlari nimalardan iborat.
4. O'xshatish munosabati qanday ifodalanadi?
5. Izohlash munosabatli bog'lovchisiz qo'shma gaplarni necha turga bo'lish mumkin?
6. Qiyoslash munosabatini ifodalagan bog'lovchisiz qo'shma gaplarda qiyoslash ob'ekti nimalardan iborat bo'ladi?
7. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar mazmunan qo'shma gaplarning qaysi turiga sinonim bo'la oladi?

3-reja bo'yicha dars maqsadlari:

Talabalarga bog'lovchisiz qo'shma gaplarda tinish belgilarning qo'llanishi bo'yicha nazariy ma'lumotlar berish.

Talabalar yozma nutqida bog'lovchisiz qo'shma gaplarni qo'llash, ularda tinish belgilarni to'g'ri ishlata olish ko'nikmalarini shakllantirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida qanday holatlarda vergul ishlatilishini biladi.
2. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida qanday hollarda nuqtali vergul ishlatilishini biladi.
3. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida qanday hollarda tire ishlatilishini biladi.

4. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida qanday hollarda ikki nuqta ishlatilishini biladi.

3-reja bayoni:

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda tinish belgilari. Tinish belgilarining ko'p turi ishtirok etadigan qo'shma gap turi – bu, bog'lovchisiz qo'shma gaplardir. Bog'langan va ergash gapli qo'shma gaplarda, asosan, vergul ishlatildi. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda esa vergul bilan bir qatorda ikki nuqta, nuqtali vergul, tire kabi tinish belgilari ham ko'p qo'llaniladi.

Bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlari bir paytda yoki ketma-ket bajariladigan ish-harakatini bildirsa, bir-biridan vergul bilan ajratiladi:

Botirlari kanal qazadi,

Shoirlari g'azal yozadi (H.O.).

Yangi maktab binosi foydalanishga topshirildi, o'quvchilar keng va yorug' xonalarda o'qish boshladilar (Ro'znomadan).

Qiyoslash munosabatini ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlari ham vergul bilan ajratiladi: Yaxshidan ot qoladi, yomondan dod (Maqol).

Bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlari o'rtasida o'xshatish munosabati yuzaga chiqqan o'rinlarda qismlar bir-biridan tire bilan ajratiladi: Qor yog'di – don yog'di. Suv keldi – nur keldi (Maqol).

Shart-payt, zidlik munosabadlarini ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlari ham o'zaro tire bilan ajratiladi:

Yurt notinch – sen notinch

Qo'shning tinch – sen tinch (Maqol).

Ko'priklar yasadik – zolimlar o'tdi,

Ariqlar chiqardik – yovlar quritdi (xat).

Qismlari biri ikkinchisini yoki uning tarkibidagi biror bo'lakni izohlab keluvchi bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlari orasiga ikki nuqta qo'yiladi: O'zingizga ma'lum: kadr tanqis (O.). Shu fe'llari yaxshi: hech kimni birovning oldida behurmat qilmaydilar (A.Q.).

Odamlar har xil: biri – sergap, biri – kamgap.

So'zlar bor: xarsangdek boshga tushar,

So'zlar bor, qanotga-qanot qo'shadi.

Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibida sodda gaplar bir necha bo'lsa, mazmuni bir-biriga yaqin bo'lgan holda guruhlangan, ular o'rtasida nutqli vergul ishlatiladi va bunday konstruktsiyalar murakkab qo'shma gaplarni yuzaga chiqaradi.

Yuqoridagilardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, bog'lovchisiz qo'shma gaplar tinish belgilariga boy bo'lganligi bilan ham qo'shma gapning boshqa ko'rinishlaridan farq qiladi. Bog'lovchisiz qo'shma gap strukturasi chizma shaklida quyidagicha ifodalash mumkin:

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarni tahlil qilish tartibi:

1. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning mazmuniy klassifikatsiyasi bo'yicha tiplari:

a) payt munosabatini;

b) qiyoslash munosabatini;

v) izohlash munosabatini bildiruvchi bog'lovchisiz qo'shma gaplar.

2. Bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlarining strukturasi:

a) ikki bosh bo'lak gaplardan;

b) bir bosh bo'lak gaplardan.

3. Komponentlar kesimining zamon munosabati:

a) bir xil zamon shakli va mazmunida;

b) turli zamon shakli va mazmunida;

4. Komponentlarni biriktiruvchi vositalar:

intonatsiya, umumiy mazmun talabi, ayrim leksik elementlar.

5. Bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlarini ajratib turuvchi tinish belgilari:

vergul, tire, ikki nuqta, nuqtali vergul.

6. Bog'lovchisiz qo'shma gapga mazmunan sinonim bo'lgan qo'shma gap turi:

a) bog'langan qo'shma gap;

b) ergash gapli qo'shma gap.

Namuna: Ona tilini seving: u dunyoni bilish kaliti.

1. Izohlash munosabatini bildiruvchi bog'lovchisiz qo'shma gap.
2. Birinchi komponent – bir sostavli (shaxs ma'lum) gapdan, ikki komponent – ikki bosh bo'lakli yoyiq gapdan iborat.
3. Kesimlari turli zamon shakli va mazmunida – kelasi zamon hozirgi zamon.
4. Komponentlar o'rtasida ikkita nuqta ishlatilgan.
5. Komponentlar o'zaro intonatsiya va mazmun talabi bilan bog'langan.
6. Mazmunan sabab ergash gapli qo'shma gapga sinonim bo'ladi:

Nazorat savollari:

1. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda tinish belgilarning qaysi turlari ishlatiladi?
2. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning qaysi turida vergul ishlatiladi?
3. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning qaysi turida tire ishlatiladi?
4. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning qaysi turida ikki nuqta ishlatiladi?

4-Mavzu bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari.

1. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar mavzusi bo'yicha qo'shimcha adabiyotdan o'qib, fikrlarini yozma ravishda bayon qilish.
2. Matndagi bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasidagi munosabatni ifodalash.
3. Ko'z qo'rqqoq - qo'l botir. Axir shu qarorga keldilar: bolalarni buvimga topshiradigan va akam o'zi bilan shaharga olib ketadigan bo'ldi. Bugun havo ochiq: derazalarni ochib yuborsa bo'ladi. Arava yo'li o'rmondan bag'ri keng dashtga chiqdi, resorli yengil brichkaga qo'shilgan gijing qo'sh ot ildam yura ketdi. Tashqarida bo'ron uvillaydi, shamolda chayqalgan daraxtlar vahimali shovillaydi. Izg'iridan ko'zlar yoshlandi, oyoq ostida qor g'ichirlaydi. Uning yangi amirkon kukini yumshoq g'irchillar, shohi yaktagi quyosh nuridan jivir-jivir tovlanib, uchqunlanib yaltirar edi. Bahor keldi, gullar ochidi. Dalalar ko'm-ko'k maysalar bilan qoplangan, uzum novdalari naycha kurtak otgandi. Hech kimdan sado chiqmas, osmonda to'rg'ay faryod solar, allaqayerda chigirtka nola chalar edi. Qishloq obod, mening ko'nglim

Adabiyotlar.

1. Abdurahmonov G'. Qo'shma gap sintaksisi asoslari. T. "Fan", 1958 y.
2. O'zbek tili grammatikasi. II tom. Sintaksis. T. 1976 y.
3. G'ulomov A.G', Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. 1987 y.
4. Mamajonov A. Qo'shma gap stilistikasi. T., "Fan", 1990 y.
5. Abdurahmonov G', Sulaymonov X., Xoliyorov H., Omonturdiyev J. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. 1979 y.
6. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. T., 1995 y.

5-mavzu: Punktuatsiya haqida ma'lumot. Tinish belgilarning yozma nutq uchun ahamiyati.

Reja:

1. Punktuatsiya haqida ma'lumot.
2. Tinish belgilarning nutqda ifodalashdagi xizmati.
3. O'zbek tilida qo'llaniladigan tinish belgilari.
4. Nuqta, so'roq, undov belgisi, vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, tire, qavs, qo'shtirnoqlarning ishlatilish o'rinlari

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar:

Punktuatsiya, tinish belgilari, yozma nutq, yozma nutq ifodasi, nutq qismlarining o'zaro mazmuniy munosabatlari, omonimiya, sinonimiya, polisemiya, uslubiyat, ishoraviy belgilar.

1-reja bo'yicha dars maqsadlari:

Talabalarga punktuatsiya, tinish belgilari, ularning yozma nutqdagi ahamiyati, vazifalari haqida nazariy ma'lumot berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Punktuatsiya haqida to'g'ri tushunchaga ega va bu tushunchani izohlab bera oladi.
2. Tinish belgilarining yozma nutq uchun ahamiyatini biladi va izohlab bera oladi.
3. Tinish belgilarining vazifalarini biladi

1-Reja bayoni

Punktuatsiya- yozuv oynasi. U yozuvchi va o'quvchi o'rtasidagi yozuv orqali bo'ladigan ijtimoiy aloqa-aralashuvni to'g'ri ta'minlash uchun yozma nutqdagi maqsad, mazmun va ma'no turlarini aniqlashtirish uchun (Masalan: gap oxiriga qo'yilgan nuqta, so'roq, undov va ko'p nuqtalarning har biri shu gapda qanday maqsad ifodalanganini bildiradi), gap strukturasini (Tuzilishini) aniq belgilash uchun (Gapni tashkil etuvchi qismlar, gap bo'laklari va gaplarning tuzilishiga xos turli munosabatlarni ko'rsatadi), (stilistik qulaylik) uchun xizmat qiladi.

O'zbek punktuatsiyasi o'zbek tilining ifoda talaffuz qonuniyatlariga va semantik-sintaktik qurilish qoidalariga asoslanadi. O'zbek punktuatsiyasi, avvalo, o'zbekcha nutqning grammatik ko'rinishiga asoslanadi.

So'roq, undov, qo'shtirnoq, ko'p nuqta kabi belgilar rus tilidan o'zlashtirilgan, ammo o'zbek tili ifoda usuli va qonuniyatlariga asoslangan holda ishlatiladi.

O'zbek punktuatsiyasining uch prinsipi bor. Bilar: Logik-grammatik (bu printsip nutqning semantik-grammatik tomonini aks ettiradi.), stilistik (bu printsip tinish belgilarining barcha nutq uslublari qo'llanilish qonuniyatlarini aniqlash uchun xizmat qiladi.), differentsiyatsiya- prinsipi (Bunga ko'ra tinish belgilari yozuv texnikasi (shaklini)44ni farqlash, tinish belgilarining qo'llanilishdagi tartib va muntazamlilikni belgilash, gapdagi -44- murakkab mazmunni oydinlashtirish uchun xizmat qiladi).

-51-

Nazorat topshiriqlari:

1. O'zbek punktuatsiyasi deganda nimani tushunasiz?
2. O'zbek punktuatsiyasining asosiy asosi nima?
3. O'zbek punktuatsiyasi nimalarga asoslanadi?
4. O'zbek punktuatsiyasining prinsiplari haqida so'zlab bering.
5. Semantik-grammatik prinsip deganda nimani tushunasiz?
6. Stilistik (uslubiy) prinsip deganda nimani tushunasiz?
7. Differentsiyatsiya prinsipi deganda nimani tushunasiz?

2-reja bo'yicha dars maqsadlari:

Talabalarga punktuatsiya, tinish belgilari, ularning yozma nutqdagi ahamiyati, vazifalari haqida nazariy ma'lumot berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Tinish belgilarining vazifalari haqida so'zlab bera oladi.
2. Har bir tinish belgilarining (Nuqta, so'roq, undov, ikki nuqta, tire, ko'p nuqta, qavs va hok.) larning qanday vazifalarni bajarish haqidagi umumiy tushunchaga ega bo'ladi.
3. Tinish belgilarining yozma nutqdagi ahamiyatini biladi.

2-Reja bayoni

Tinish belgilari yozma matndagi gap bo'laklari, gapning ayrim qismlari va gaplarning o'zaro turli sintaktik munosabatlari (birikishi, bo'linishi, ajralishi, ayrilishi kabilar) ni ko'rsatish uchun qo'llanadi.

Tinish belgilari yozma matndagi turli holatlar, ikki his-hayajon va turli mazmuniy tovlanishlarni ifodalash uchun qo'llanadi. Masalan, undov belgisi ham undov gaplar, ham buyruq

gaplar oxiriga qo'yiladi. Buyruq va undov gaplardagi ma'no tushlari o'z ichida yana turlicha bo'lishi mumkin. Bunday paytlarda undov belgisining qanday ma'no va vazifada qo'llanganligi matn mazmunidan aniqlanadi.

Tinish belgilari yozma matnning tarkibiy va uslubiy jihatlarini to'g'ri belgilash uchun xizmat qiladi. Masalan: *Men opamning jildidan qalin kitobni – qur'on bo'lsa kerak – olib, palapartish varaqlayman. (Oybek.)* Bunda kirish gap qo'sh tire vositasida ajratilgan. Ma'lumki, kirishlar doimo vergul bilan ajratilib, ba'zi hollarda qavsga olinadi. Yuqoridagi misolda qo'sh tire vergul o'rnida qo'llangandir. Demak, bunda qo'sh tire qo'shimcha vazifani bajarayotir. Tinish belgilarining bunday birining o'rnida ikkinchisining qo'llanishi **ishoraviy sinonimiyan** hosil qiladi. Gapning ajratilgan bo'laklari vergul ham tire vositasida, kiritma qurilmalar tire ham qavs vositasida ajratiladiki, bular ham ishoraviy sinonimiyaning ko'rinishlaridir.

Nazorat topshiriqlari:

1. Tinish belgilarining yozma matndagi mazmunni aniq ifodalash uchun xizmat qilishini izohlang.
 2. Tinish belgilarining yozma matndagi gap bo'laklari, gapning ayrim qismlari, gaplarning o'zaro turli sintaktik munosabatlarini ifodalashiga misollar keltiring.
- Tinish belgilarining yozma matndagi his-hayajon va turli mazmuniy tovlanishlarni ifodalashiga misollar keltiring.
3. Tinish belgilari yozma matnning uslubiy jihatlarini to'g'ri belgilash uchun xizmat qilishiga misollar keltiring.
 5. Tinish belgilari sintaktik birliklarning boshlanish, tugallanish chegaralarini belgilash uchun xizmat qilishiga misollar keltiring.

3-reja bo'yicha dars maqsadlari:

Talabalarga tinish belgilari, ularning ishlatilish o'tinlari, vazifalari haqida nazariy va lumot berish

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Tiyish belgilarini biladi
2. Tinish belgilarining har biri qaysi holatlarda qo'llanishini biladi.
3. Yozma nutqda tinish belgilarini to'g'ri qo'llay oladi

.3-Reja bayoni

Tinish belgilari yozma matndagi gap bo'laklari, gapning ayrim qisimlari va gaplarning o'zaro turli sintaktik munosabatlari (birikishi, bo'linishi, ajralishi, ayrilishi kabilar) ni ko'rsatish uchun qo'llanadi.

Tinish belgilari yozma matndagi turli holatlar, ikki his-hayajon va turli mazmuniy tovlanishlarni ifodalash uchun qo'llanadi. Masalan, undov belgisi ham undov gaplar, ham buyruq gaplar oxiriga qo'yiladi. Buyruq va undov gaplardagi ma'no tushlari o'z ichida yana turlicha bo'lishi mumkin. Bunday paytlarda undov belgisining qanday ma'no va vazifada qo'llanganligi matn mazmunidan aniqlanadi.

Tinish belgilari yozma matnning tarkibiy va uslubiy jihatlarini to'g'ri belgilash uchun xizmat qiladi. Masalan: *Men opamning jildidan qalin kitobni – qur'on bo'lsa kerak – olib, palapartish varaqlayman. (Oybek.)* Bunda kirish gap qo'sh tire vositasida ajratilgan. Ma'lumki, kirishlar doimo vergul bilan ajratilib, ba'zi hollarda qavsga olinadi. Yuqoridagi misolda qo'sh tire vergul o'rnida qo'llangandir. Demak, bunda qo'sh tire qo'shimcha vazifani bajarayotir. Tinish belgilarining bunday birining o'rnida ikkinchisining qo'llanishi **ishoraviy sinonimiyan** hosil qiladi. Gapning ajratilgan bo'laklari vergul ham tire vositasida, kiritma qurilmalar tire ham qavs vositasida ajratiladiki, bular ham ishoraviy sinonimiyaning ko'rinishlaridir. O'zbek tilida yozma nutqda qo'llaniladigan tinish belgilari quyidagilar:

1. Nuqta
2. Vergul
3. Nuqtali vergul
4. Ko'p nuqta
5. Ikki nuqta
6. So'roq belgisi
7. Undov belgisi
8. Tire
9. Qo'shtirnoq
10. Qavs

Ularning har biri yozma nutqda o'z vazifalariga ega. Masalan: Nuqta, so'roq belgisi, undov belgisi kabi tinish belgilari gapning chegarasi tugallanganligini bildirsa, vergul, tire, qo'shtirnoq, qavs kabilar gapning ichida qo'llaniladi. Ular gapning qismlarini, ba'zan bo'laklarini bir-biridan

ajratishni ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Bundan tashqari ba'zi tinish belgilari his-hayajonni ifodalash uchun, masalan: qo'shtirnoq so'zning o'z ma'nosi boshqa ma'noda qo'llanilish kabilarni bildiradi.

Xullas, har bir tinish belgisi o'ziga xos vazifani bajaradi va o'quvchi matnda qo'llangan har bir tinish belgisining vazifasini yaxshi bilishi kerak. Aks holda matnni to'g'ri tushunish qiyin bo'ladi. Yozma nutqni tayyorlayotgan kishi tinish belgilarini to'g'ri qo'llashi lozim bo'ladi.

Tinish belgilarining noto'g'ri qo'llanilishi yoki kerakli joyda qo'llanilmay tushib qolishi, yoki ortiqcha zaruratsiz qo'llanilishi nutqning mazmuniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uni tushunarsiz holga keltiradi, yoki mazmunni, grammatik tuzilishni o'zgartirib yuboradi. Masalan Anvar do'sting bilan uchrashdingmi?

Matnni o'quvchi kishi tinish belgilariga e'tibor bergan holda, har biriga xos pauza (to'xtam), ohang bilan o'qishi shart, aks holda nutq ifodaliligini yo'qotadi. Nuqtaing ishlatish o'rinlari:

1. Har xil tuzilishdagi darak gaplar oxiriga nuqta qo'yiladi:

a) ikki tarkibli darak gaplar oxiriga: hasad davosiz darddir. Hasadchi hamisha birovning shodligidan g'amnok, rohatidan alamnok bo'ladi. ("Kalila va Dimna".)

b) qo'shma gaplar oxiriga: kim iste'dodli bo'lsa, uning haqida ko'p mish-mishlar to'qiydilar. ("Kalila va Dimna".) Baxt haqidagi tushunchani bola bir xil, katta odam boshqa bir xil tarzda talqin qiladi. (Tohir Malik)

c) bir tarkibli gaplar va so'z-gaplar oxiriga: Shunga e'tibor bermagan ekanman. (S.Ahmad.)

2. His-hayajonga ega bo'lmagan buyruq-istak gaplar tinch ohang bilan aytiladi va gap oxirida nuqta ishlatiladi:

Bittasidan kecha qolaylik. Davlatimiz ketib qolmas. Beraqolaylik. (Murodjon mansurov.)

3. Qavs ichidagi remarkadan keyin nuqta ishlatiladi:

Sh a y x u l i s l o m. Bilmadim, shahanshoh, bunday noshar'iy ishlarga nechuk rozilik berdi ekan. (Ketadi.) (**Uyg'un.**) Verglning qo'llanish o'rinlari va ishlatilish usullari:

1 gapning uyushiq o'laklarini ajrtish uchun ishlatiladi: Har bir tuman, qishloqda yem do'konlari ochilib, ularda kunjara va sheluxa sotilmas ekan, ahvol hech qachon o'nglanmaydi. Ota-onalar qizlariga umid bilan: Gulnora, Gulandom, Gulrux, Gulbarg..... deb ism qo'ydilar.

2. Takrorlanuvchi bog'lovchilar bilan kelgan uyushiq bo'laklar ham vergul bilan ajratiladi:

3. Takror gaplar va takror bo'laklar vergul bilan ajratiladi: O'qi, jiyan, o'qi.

4. Zidlovchi bog'lovchilardan oldin vergul ishlatiladi: Iskandar unga bir qarab qo'ydi, lekin hech narsa demadi.

Nuqtali vergulning ishlatilish o'rinlari: 1. Mazmun jihatidan mustaqilligi nisbatan kuchliroq bo'lgan yoki qiyoslash munosabatini anglatuvchi bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari o'zaro nuqtali vergul bilan ajratiladi. Ozgina yolg'on ham ulug' gunohdir; ozgina zahar ham halok qiluvchidir.

2. Uyushib kelgan bir necha gap bo'laklari (agar gap ichida vergul ishlatilgan bo'lsa) o'zaro nuqtali vergul bilan ajratiladi:

Ikki nuqtaning ishlatilish o'rinlari:

1. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda keyingi gap oldingisining mazmunini to'ldirsa, izohlasa, sabab-natijasini anglatga, ularning o'rtasida ikki nuqta ishlatiladi: Ertasi domla institutdan xafa bo'lib qaytdilar: To'lqin aspiranturadan kechib, geologlar bilan uzoq safarga jo'nashga qaror qilgan ekan.

2. Umumlashtiruvchi bo'lak uyushiq bo'laklardan oldin kelsa, undan keyin ikki nuqta ishlatiladi: Men, azizim, boshqacharoqman: kabob ham yeyman, ketmon ham chopaman.

Tirening qo'llanish o'rinlari:

1. Ot-kesim bog'lamasiz ishlatilganda, ega va kesim orasiga tire qo'yiladi: Haqiqiy oltin kuz – oq-oltin kuzi.

2. Ega ko'rsatish olmoshi bilan ifodalanganda tire ishlatiladi: Bu-ulug' sahroning etagi edi.

3. Umumlashtiruvchi qurilmalardan oldin uyushiq bo'laklardan keyin tire ishlatiladi: Nimaiki unvon, darajalar-hammasini olgan, birovga tobe joyi yo'q.

4. Ajratilgan bo'laklar tire bilan ajratiladi: Zaminu-osmon tarovatli bir isdan-bahor isidan-mast bo'lib qoladi. Qavsning ishlatilish o'rinlari:

1. Kiritmalar qavsga olinadi: Bir kuni mahallaning narigi chekkasida turadigan novvoynikiga kirib qoldim (nima yumush bilan kirganim esimda yo'q).

2. Remarkalar (pyesalarda avtorning izohlari) qavs ichiga olinadi: Bashorat. Suykalmay joning chiqsin. (Hali ham yelkasida dasturxon bilan turgan Nigoraga). Mana shu Sottixon ovsiningizga ehtiyot bo'ling. Aslo sir ayta ko'rmang, darrov sotadi.

3. Parcha yoki misol uchun tanlangan gaplarga doir manba ma'lumotlari qavsga olinadi: O. Jalilovning Toshkent madrasalari haqida yozgan maqolasida ("Fan va turmush", 1983 y., 9-son) XIX asr oxiri va XX asr boshlarida mudarrislariga beriladigan bilimlar doirasi torayib ketganligi, ko'pgina madrasalar, hatto mashhur Beglarbegi madrasasi xarobaga aylanishi ham shu yillarga to'g'ri kelganligini ko'rsatadi.

4. So'z, so'z birikmasi yoki ayrim gapga izoh berish maqsadida ishlatiladigan qurilmalar qavs ichiga olinadi: Fitrat turk (o'zbek) tilining boyligini asosan arab tiliga solishtirib ochmoqchi bo'ldi.

Qo'shtirnoqning ishlatilish o'rinlari:

1. O'zga gaplar, so'zlar va matn ichida ishlatiladigan parchalar qo'shtirnoqqa olinadi: Shunda u bir gal menga degan edi: "Gapning ochig'ini aytganda, Abdulla Qodiriyelek so'z ustasi, ulug' san'atkor yozuvchi dunyoga besh yuz yilda yo bitta keladi, yo kelmaydi".

2. Asar personajlarining ichki kechinmalarini ahglatuvchi so'z va gaplar (ichki monolog) qo'shtirnoqqa olinadi, biroq bunday hollarda vergul va tire ishlatilmaydi: "Muxtorjonimga xo'pam munosib ekanmi"deb o'yladi Saltanat aya beixtiyor.

3. Ko'chma na'noda ishlatiladigan so'zlar, iboralar qo'shtirnoqqa olinadi: Bek hamon "ozingizning odamingizman"degan so'zni eshitgan choqdagi kayfiyatda edi.

4. Gazeta, jurnallar, ilmiy va badiiy asarlar nomi qo'shtirnoqqa olinadi

Nazorat savollari:

1. Yozma nutqda vergul qanday o'rinlarda ishlatiladi?

2. Yozma nutqda nuqtali vergul qanday o'rinlarda ishlatiladi?

4. Ikki nuqtaning ishlatilish o'rinlarini aytib bering.

5. Undov belgisi qanday o'rinlarda qo'llanadi.

6. Tinish belgilarida polisemiya hodisasi haqida so'zlab bering va misollar keltiring.

7. Ishoraviy sinonimiya haqida so'zlab bering va misollar keltiring.

8. Tinish belgilarida omonimiya hodisasi haqida so'zlab bering va misollar keltiring.

9. Tinish belgilari yozma nutqda asosan qanday vazifalarni bajaradi?

10. Tinish belgilari noto'g'ri qo'llanilsa matn mazmuniga ko'rsatadigan ta'sirini izohlab bering.

11. Yozma nutqda nuqta qanday o'rinlarda ishlatiladi?

12. Yozma nutqda so'roq belgisi qanday o'rinlarda ishlatiladi?

13. Ko'p nuqtaning ishlatilish o'rinlarini aytib bering.

14. Undov belgisi qanday o'rinlarda qo'llanadi?

5-Mavzu bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari.

1. "Punkuatsiya" mavzusi bo'yicha qo'shimcha adabiyotlarni o'zlashtirish va fikrlarni yozma bayon qilish (2 soat).

2. Matndagi tinish belgilarini tahlil qilish.

Otam- Ne'mat Anorboyev, qalbi pok, bilimli inson edilar. –Voy, Huriniso opa, kelin qildingizmi? - dedi Tojixon. –Uf! - dedi horg'in holda pastak kursiga o'tirib. Hirotida talaygina adiblar, mashshoqlar, rassomlar chiqibdi. Yormat boshini ko'tardi, bir qo'lini yerga tirab yonboshladi. Jismimiz yo'qolur- o'chmas nomimiz. Chol undan balandroq keldi: Men brigadirlikdan tushmayman deb chiqib ketdi. Ko'p so'zning ozi yaxshi, oz so'zning o'zi yaxshi. Oppoq soqoli bilan farzandlarini ham, nevaralarini ham, qo'shni o'g'il qizlarni ham, xullas, barchani sizlab gapiradi. Yer-xazina, so'z- gavhar, deydi xalqimiz.

Adabiyotlar:

1. Nazarov K. Egamberdiyev B. "O'zbek tili ishora-imlo qoidalar". Toshkent. "O'qituvchi". 1996 yil.

2. Nazarov K. Sayfullayeva R. Ubaydullayeva M. "O'zbek tili". Toshkent. "O'qituvchi". 1993 yil.
3. Abdurahmonov G'. Qo'shma gap sintaksisi asoslari. T., "Fan". 1958 y.
4. O'zbek tili grammatikasi. II tom. Sintaksis. T. 1976 y.

Test savollari:

1. Qaysi qatorda qo'shma gap berilgan?

- A. Mehnat qilmasang rohat yo'q.
- B. Halol odamlar baxtini mehnat orqali topadilar.
- S. Biz, sinf rahbarimiz aytdi, ertaga sayohatga boramiz.
- D. Hamma stollarning ichi, usti turli-tuman g'og'ozlar, loyihalar, qo'llanmalar, iltimosnomalar, ko'rsatmalar bilan to'lib ketgan.

2. Qoshma gap tarkibidagi sodda gaplarni o'zaro biriktiruvchi vositalar qaysi qatorda to'liqroq aks etgan?

- | | |
|-------------------------------|--------------|
| A Bog'lovchilar | B Yuklamalar |
| S Ba'zi fe'l shakllari, ohang | D A, B, S |

3. Eshik ochildi-yu, bir necha mehmon kirib keldi. Ushbu misol bog'langan qo'shma gapning qaysi turiga mansub?

- A. Biriktiruv munosabatli bog'langan qo'shma gap.
- B. Zidlov munosabatli bog'langan qo'shma gap.
- S. Ayiruv munosabatli bog'langan qo'shma gap.
- D. Sodda gap.

4. Biriktiruv munosabatli bog'langan qo'shma gap qaysi qatorda aks etgan?

- A. Quyosh yerga nurini har qancha sochsa ham, u biuning evaziga yerdan hech narsa talab qilmaydi.
- B. Biz sayohatga va u yerda juda ko'p chiroyli joylarni ko'rdik.
- S. Suv keldi-nur keldi.
- D. Hammma zalga yig'ildi va majlis boshlandi.

5. Zidlov munosabatli bog'langan qo'shma gap.

- A. Men shunday sekin so'zlaymanki, hech kim eshitmaydi.
- B. Ko'nglimni zavq asir etdi-yu, yosh boladay har yon yugurdim.
- S. Uying tor bo'lsa ham, ko'nling keg bo'lsin.

D. Sevinch sedan chiqadi-yu, qayg'u unitilmaydi.

6. Ayiruv munosabatli bog'langan qo'shma gapni toping.

A. Narsalarga qiziqishlaring yo'qolsa, xotirangdan ham ayrilasan.

B. Bema'ni fikrlar har kimda ham bo'ladi, faqat aqlli kishilar uni ishlatmaydilar.

S. O'zi qari bo'lsa ham, ko'ngli yosh.

D. Ba'zan sho'x musiqa yangraydi, ba'zan zo'r qah-qaha yangraydi.

7. Qanday gaplar tarkibida bosh gap mavjud bo'ladi?

A. Bog'langan qo'shma gaplarda.

B. Ergash gapli qo'shma gaplarda.

S. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda.

D. Kirish so'z qatnashgan gaplarda.

8. Ergash gaplarning qaysi turida bosh gapning kesimi ko'rsatish olmoshi bilan ifodalanadi?

A. Ega ergash gapli qo'shma gaplarda.

B. Kesim ergash gapli qo'shma gaplarda.

S. Shart ergash gapli qo'shma gaplarda.

D. To'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplarda.

9. Kim ko'p gapirsa, o'sha oz biladi. Ushbu gap ergash gapli qo'shma gaplarning qaysi turiga mansub?

A. Kesim ergash gapli qo'shma gaplar.

B. Aniqllovchi ergash gapli qo'shma gaplar.

S. Ega ergash gapli qo'shma gaplar.

D. Natija ergash gapli qo'shma gaplar.

10. Qo'yidagi gap ergash gapli qo'shma gaplarning qaysi turiga mansub? Biz qancha ko'p koyisak ham, unda hamon o'sha fikr.

A. Ega ergash gapli qo'shma gap.

B. Kesim ergash gapli qo'shma gap.

S. To'siqsiz ergash gapli qo'shma gap.

D. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap.

11. Ergash gapli qo'shma gapni aniqlang.

- A. Kim mehnatni sevsa, uning qadri baland bo'ladi.
- B. Muhabbat eski narsa, ammo har bir yurak uni yangilaydi.
- S. Jismimiz yo'qolur, o'chmas nomimiz.
- D. Biz ko'rgan, eshitgan, lekin e'tibor bermagan voqealarga san'atkorona baho beramiz.

12. Ega ergash gapli qo'shma gapni belgilang.

- A. Daraxtni yer ko'kartiradi, odamni el ko'kartiradi.
- B. Agar seni aldasa hayot, sen noumid bo'lma hech qachon.
- S. Kimki birovlariga sitam qilaversa, o'zi ham uzoq yashamaydi.
- D. Dasturxonni yozib, nonlarni ushatdi.

13. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapni belgilang.

- A. U tarixchilar, binokorlar, adabiyotshunoslar, shoirlar, tabibilarni o'z atrofiga yig'di.
- B. Yigitlar yuzlarini berkitsa ham, qumlar yuzlariga qadalar edi.
- S. Hayotxon bu gapni shunday g'amgin tovushda aytdiki, G'ulomjon beixtiyor to'xtadi.
- D. Bilib qo'yki, sening ulug' noming bor.
- E. Odatim shu chala ishni yomon ko'raman.

14. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gapni belgilang.

- A. Oq, pushti, sarg'ish gullarga qarab dilimiz yayraydi.
- B. Biz istaymiz: barcha ellar bir-birga yanada yaqinroq bo'lsin.
- S. Bilim shunday xazinaki, u sarflagan bilan tamom bo'lmaydi.
- D. Do'stlarning haq so'zi achchiq bo'lsa ham, aqlli odam uni shirin so'zdan ustun qo'yadi.

15. Payt ergash gapli qo'shma gapni belgilang.

- A. Saida bir lahza nafasi ichiga tushib, noqulay ahvolda qoldi.
- B. Agar odamlar chekmay qo'ysa, rak kasali uch hissa, yurak kasali to'rt hissa kamaygan bo'lar edi.
- S. Avtobusdagi dim, issiq havodan keyin bu yerdagi salqin tog' shabadasi hammani yayratib yubordi.
- D. Usta Samarqandda ishlagan vaqtda, Sultonmurod uch yashar bola edi.

16. Payt ergash gapli qo'shma gapga qaysi biriktiruvchi vosita xos emas? Uni belgilang.

- A. –gach, (-kach, -qach) – guncha, (-kuncha, -quncha) –may, -i (-b), - qo'shimchali ravishdosh.
- B. –da kelishik qo'shimchali sifatdosh.

S. – dan qo'shimchali sifatdoshdan keyin buyon, beri, so'ng, keyin kabi so'zlar.

D. – gan qo'shimchali sifatdoshdan keyin uchun, tufayli ko'makchilar.

17. Javoblarning qaysi birida ravish ergash gapli qo'shma gap berilgan? Uni belgilang.

A. Oftob tegmay, olma pishmas.

B. Vaqtlar o'tishi bilan ba'zi adabiy shakllar o'z umrini tugatadi.

S. Yulduzlar bitta-bitta so'nib, ufq oqara boshladi.

D. Er ishini qo'llasa el, iqbol quvlar izidan.

18. Javoblarning qaysi birida o'xshatish ergash gapli qo'shma gap berilgan? Uni belgilang.

A. Husning bo'lguncha, taxting bo'lsin.

B. Katta orzu amalga oshmagan uchun, Navoiy qattiq qayg'urdi.

S. Yuraging bitta bo'lganidek, Vataning ham bitta.

D. Boshda aql bo'lmasa, oyoqda tinim yo'q.

19. Javoblarning qaysi birida maqsad ergash gapli qo'shma gap berilgan? Uni belgilang.

A. Yo'lcining ko'ngli quvonch bilan to'la, chunki Gulnor yonida edi.

B. G'o'za suvni miriqib ichsin uchun, qiz uni sekin, bir tekis shildiratishga harakat qilar edi.

S. Maqsad aniq bo'lmasa, hech bir ishni ko'ngildagidek bajarib bo'lmaydi.

D. Qaysi narsa sevimli bo'lsa, uning aybi ko'rinmaydi.

20. Javoblarning qaysi birida sabab ergash gapli qo'shma gap berilgan? Uni belgilang.

A. Nonni e'zozlasang, el seni e'zozlaydi.

B. Oftob qanchalik bo'lsa ham ravshan, bir parcha bulut ham bekitar ba'zan.

S. Bu kitobni tezda qaytarish sharti bilan beraman.

D. Tuproqda tuz ko'payib, g'o'zalar quriy boshladi.

21. Javoblarning qaysi birida shart ergash gapli qo'shma gap berilgan? Uni belgilang.

A. Biliming osmonga yetgan bo'lsa ham, boshqalar fikriga quloq sol hardam

B. Xullas, Navoiyning xulosasi shuki, nafs- ichki, lekin juda katta dushman.

S. Dutor chalib o'tirsam, tori uzilib ketdi.

D. Hamma bir-birining fikriga qo'shilaverganda, hech qanday taraqqiyot bo'lmas edi.

22. Javoblarning qaysi birida to'siqsiz ergash gapli qo'shma gap berilgan? Uni belgilang.

- A. Odamlarda imoh, insof, e'tiqod, mulkka egalik huquqi bo'lsa, jinoyatga o'rin qolmaydi.
- B. Baytrni o'qib berganimda, uni hech kim sharh qilolmadi.
- S. Yillar o'tsa-da, yaxshilik urug'i hosil beraveradi.
- D. Hunar yoddan chiqmaydi, lekin nozik tomonlari unutiladi.

23. Natija ergash gapli qo'shma gapni belgilang.

- A. Alisher ishga shu qadar berilib ketdiki, hatto u tashnalikni ham unutdi.
- B. Yerlar loy bo'ldi, chunki hozirgina do'l yog'ib o'tdi.
- C. Qaterda ahillik bo'lsa, shu yerda baraka bor.
- D. Fan cho'qqisini egallasin deb, oliy maktab quchog'in ochgan.

24. Bir necha ergash gapli qo'shma gapni aniqlang.

- A. Hali oftob chiqmagan, ammo osmon bo'zarib qolgan, yulduzlar mudroq ko'zlarini yumgan edi.
- B. Teraklarning yaproqlari asta shivirlar, ariqlarda suvlar shildirar, soya-salqin bog'da qushlar chug'urlashar edi.
- C. Quyosh tabiatga jon kiritganidek, yer insonga rizq-u ro'z berganidek, ona ham o'z farzandiga mehrini bahshida qiladi.
- D. Men oldinga o'tirsam, boshqalar doskani ko'rishmaydi, Shodivoy orqada o'tirsa, u hech narsani ko'rolmay qoladi.

25. Aralash turdagi qo'shma gapni belgilang.

- A. Yurak talpinib, quvonchlar chulg'ab, har daqiqani sanayman.
- B. Yurak baquvvat bo'lsa, ish unumli bo'ladi va kishi charchamaydi.
- C. Eshkaklardan suv sachraganda, bola xursand bo'lib qiqirlaganda, ona behad shodlanar.
- D. Yo'lchining farishtaday singlisi bor, bir mahsido'st cholning qo'lida, qiz ham kosiblikda farang tikkan mahsilari misoli bir gul.

26. Qaysi qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar o'zaro faqat tobelik yordami bilan birikkan.

- A. Safarov endi qo'lga piyolani olgan edi, Shodiyev gap boshladi.
- B. Onaxon yangi shaharga kam kelgan, lekin bu ko'chalardagi katta-katta binolar esida qolgan ekan.
- S. Saida goh afsuslanib, goh kuyib, gh kulib gapirib berdi.
- D. Ovqatlanib olishsin, to'l og'ir.

27. Berilgan gap ergash gapning qaysi turiga mansub? Yormat shahardan piyoda qaytib, horigani uchun, hamma otlarga Yo'lchi qaradi.

- A. Ega ergash gapli qo'shma gap.
- B. Sabab ergash gapli qo'shma gap.
- S. Kesim ergash gapli qo'shma gap.
- D. To'siqsiz ergash gapli qo'shma gap.

28. Fevralning oxirgi kunlariga bo'lishiga qaramay, qor bir necha kunlardan beri tinmay yog'moqda edi. Ushbu berilgan gap ergash gapning qaysi turiga mansub?

- A. Ega ergash gapli qo'shma gap.
- B. Shart ergash gapli qo'shma gap.
- S. To'siqsiz ergash gapli qo'shma gap.
- D. Qiyos ergash gapli qo'shma gap.

29. Bosh gap tarkibida –shunday, olmoshi, ergash gap tarkibida –go'yo yuklamasi ishlatilsa, bunday gap ergash gaplarning qaysi turiga mansub?

- A. Kesim ergash gapli qo'shma gap.
- B. O'rin ergash gapli qo'shma gap.
- S. Ravish ergash gapli qo'shma gap.
- D. Qiyos ergash gapli qo'shma gap.

30. Kim odobli bo'lsa, u hurmatga sazovor bo'ladi. Ushbu berilgan gap ergash gapning qaysi turiga mansub?

- A. Ega ergash gapli qo'shma gap.
- B. Kesim ergash gapli qo'shma gap.
- S. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap.
- D. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap.

31. Botirlari kanal qazadi, shoirlari g'azal yozadi. Ushbu gapning turini ayting.

- A. Ergash gapli qo'shma gap.
- B. Aralash qo'shma gap.
- S. Bog'langan qo'shma gap.
- D. Bog'lovchisiz qo'shma gap.

32. Shunisi ravshanki, ta'lim-tarbiya hayot bilan bog'liq bo'lishi kerak. Ushbu gap ergash gapli qo'shma gapning qaysi turiga mansub?

- A. Kesim ergash gapli qo'shma gap.
- B. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap.
- S. Ega ergash gapli qo'shma gap.
- D. O'xshatish ergash gapli qo'shma gap.

33. Qaysi gap to'siqsiz ergash gap hisoblanmaydi?

- A. So'rasangiz, so'ramasangiz aytaman.
- B. Bo'rining yesa ham og'zi qon, yemasa ham og'zi qon.
- S. Said uydin shunday chiqib ketdiki, hech kim bilmay qoldi.
- D. Oradin shuncha vaqt o'tdiki hamki, u kelmadi.

34. Qo'shma gapning bir qismi to'liqsiz gap tarzida shakllangan gapni toping.

- A. Uzilgan ip qayta ulansa, uning tuguni qoladi.
- B. Har faslning o'z xislati bor, har faslning o'z fazilati.
- S. Yomg'ir yog'masa, ekskursiyaga boramiz.
- D. Shunday oilalar borki, ular ilmni hamma narsadqan yuqori qo'yadilar.

35. Kimki, o'z ona tilini bilmasa, unda Vatan tuyg'usi ham bo'lmaydi. Ushbu gap ergash gapli qo'shma gapning qaysi turiga mansub?

- A. O'rin ergash gapli qo'shma gap.
- B. Maqsad ergash gapli qo'shma gap.
- S. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap.
- D. Shart ergash gapli qo'shma gap.

36. Qo'shma gap berilgan qatorni toping.

- A. Olim o'qishga kelganini aytdi va qanday hujjatlar topshirish kerakligini so'radi.
- B. Iliging uzilsa ham, ilm yo'lidan qolma.
- S. Aytmoqchi, Qo'chqorning o'g'lidan xat-xabar bormi?
- D. Dunyoni tanimay, dunyo kishisi bo'lolmaysan.

37. Bog'langan qo'shma gapni toping.

- A. Uzilgan ip qayta ulansa, uning tuguni qoladi
- B. Zal dam g'uvillab qo'yar, dam onda-sonda qarsak yangrab, yana tinardi.
- S. Ehe, bu yerlar ham shunday gullab ketsinki, odamlar bir sayr qilishni orzu qilishsin.
- D. Biroz qor yog'di, sovuq bo'lmadi.

38. Biriktiruv munosabatli bog'langan qo'shma gapni toping.

- A. Karim salomlashib otib ketmoqchi bo'ldi, lekin karim uni to'xtatdi.
- B. Masofa yiroq, ko'ngil yaqin.
- S. Dunyoda biz bormiz- tinchlik buzilmas
- D. Bulutlar tarqadi va quyosh charaqlab chiqdi.

39. Yomg'ir tindi-yu, shamolto'xtamadi. Ushbu gap haqidagi qaysi fikr to'g'ri?

- A. Biriktiruv munosabatli bog'langan qo'shma gap.
- B. Ayiruv munosabatli bog'langan qo'shma gap.
- S. Zidlov munosabatli bog'langan qo'shma gap.
- D. Ergash gapli qo'shma gap.

40. Rustam supaga joy qilib berdi-da o'zi qayoqqadir ketdi. Ushbu qo'shma gapning qismlari qaysi vosita yordamida birikkan?

- A. Biriktiruv bog'lovchisi yordamida.
- B. Zidlov bog'lovchisi yordamida.
- S. Ergashtiruvchi bog'lovchisi yordamida.
- D. Biriktiruv bog'lovchisi o'rnida qo'llangan yuklama yordamida.

41. Ergash gapli qo'shma gap berilgan qatorni toping.

- A. Qilich yarasi tuzaladi, til yarasi tuzalmaydi.
- B. Siz borsiz, bu olam ko'rsatur jamol.
- S. Davralarning to'ri bugun paxtakor dehqon uchun, qalbimizning qo'ri bugun paxtakor dehqon uchun.
- D. Anhor sekin oqardi, shuning uchun ish uzoqqa cho'zilmadi.

42. Biz shuni aniq bilamizki, millatlararo nizolar yaxshilikka olib kelmaydi. Ushbi gapda ergash gap bosh gapdagi qaysi bo'lakni izohlab kelgan?

- A. To'ldiruvchini.
- B. Egani.
- S. Kesimni.
- D. Holni.

43. Bir oz vaqt o'tgach dala chetida chang ko'tarildi. Ushbi gapda ergash gap bosh gapga qaysi vosita orqali birikkan?

- A. Biriktiruvchi bog'lovchi
- B. Zidlovchi bog'lovchi
- S. Fe'lining shart mayli shakli
- D. Fe'lining ravishdosh shakli

44. Ega ergash gapli qo'shma gap berilgan qatorni toping.

- A. Bu bo'stonda do'stlar bermasa ko'mak, nasib bo'lmas maqsad gulini termak.
- B. Tanlov katta bo'lsa ham, ular ishonch bilan kelishgan.
- S. U ko'p gapirib, so'zamollik qilayotganligi sababli, boshqa qizlar jim turishardi.
- D. Kimki mehnat qilsa, u rohat ko'radi.

45. Qaysi qatorda kesim ergash gapli qo'shma gap berilgan?

- A. Istagim shuki, hammangiz ahil bo'ling
- B. To'rtburchakning qarama-qarshi tomonlari bir-biriga teng bo'lsa, parallellogram hosil bo'ladi.
- S. Oppoq qirov erta sahar asta-sekin ko'tarilganiday, uning chehrasidan vahima ham tarqalib bordi.
- D. Sevinchlarim daryoday toshib, yuragimda havasim ortar

46. Bosh gapda qo'llanmagan to'ldiruvchini izohlab kelgan to'ldiruvchi ergash gapni toping.

- A. O'qish davrida Mavlonqulov qayerda bo'lsa, Mutalov ham shu yerda bo'lar edi.
- B. Shuni unutmangki, hasadgo'ylar doimo boshqalarga yomonlik istashadi.
- S. Bilib qo'yki, sening ulug' noming bor.
- D. Shundan ogoh bo'lingki, dushman hamma vaqt payt poylaydi.

47. Shart maylidagi fe'l bilan bosh gapga birikkan aniqlovchi ergash gap berilgan qatorni toping.

- A. Shunga iqrar bo'ldikki, kurashsiz taraqqiyot bo'lmaydi.
- B. Shunday oilalar borki, ular farzand tarbiyasini eng asosiy masala hisoblashadi.
- S. Kimning bilimi bo'lsa, uning obro'si bo'ladi.
- D. El senga etsa nadomat, dunyoda turolmassan salomat

48. U kulganda butun olam yorishganday bo'ladi. Ushbi gapda ergash gap bosh gapga qaysi vosita orqali birikkan?

- A. Shart maylidagi fe'l bilan
- B. Ergashtiruvchi bog'lovchi yordamida
- S. Fe'lning sifatdosh shakli yordamida
- D. Fe'lning ravishdosh shakli yordamida

49. Ravish ergash gapli qo'shma gapni belgilang.

- A. Sizdan iltimos shuki, odamlar bilan ehtiyot bo'lib gaplashing
- B. Nihollar kundan-kunga quyoshga intilsa ham, ba'zilarida hali kurtak uyg'onmagan edi.
- S. Qoshlari chimirilib, Mahkam Eshonboyevga qaradi.
- D. Kimning do'sti ko'p bo'lsa, uning nomi yoyiladi.

50. O'xshatish ergash gapli qo'shma gap berilgan qatorni belgilang.

- A. Eslatamanki, yo'lda nazoratchi bor.
- B. Har gulning o'z hidi bo'lganidek, har bir xalqning o'ziga xo'surf-odatlar, madanyati bo'ladi.
- C. GES binosi bitguncha, ariqlar tayyor bo'ldi.
- D. Ming yil chaqmoq chaqsa ham, ulkan tog' gerdayib turaveradi.

51. Ergashtiruvchi bog'lovchi yordami bilan bosh gapga birikkan sabab ergash gapni qo'shma gapni belgilang.

- A. Daraxt yashnab turgani uchun, soyasidan odam arimaydi.
- B. Shamol oldindan esardi, shuning uchun yurish qiyin edi.
- C. Gul ochilmasa, bulbul sayramas.
- D. Odamlar bilan shunday muomala qilingki, ular sizdan rozi bo'lishsin.

52. Shart ergash gapli qo'shma gap berilgan qatorni ko'rsating.

- A. U televizorni o'chirdi shekill, sukunat cho'kdi.
- B. Bahor kelsa, gullar ocqiladi.
- C. Maktabga borsam, dars boshlangan ekan.
- D. Ko'p o'qisang, biliming ko'p bo'ladi.

53. To'siqsiz ergash gap qatnashgan qo'shma gapni belgilang.

- A. Bu ish yaxshi bo'ldi, lekin imtihondan kech qoldim.

- B. Ko`prikdan o`tishi bilan, ko`zi chiroyli manzaraga tushdi.
- C. Yillar o`tsa-da, yaxshilik urug`i hosil beraveradi.
- D. Sandiq shunday puxta bo`lsinki, ichiga suv o`tmasin.

54. Qaysi qatordagi ergash gap bosh gapga kelishik qo`shimchasini olgan sifat yordamida birikkan.

- A. Go`yo hamma uning siridan voqif bo`lganday, yigit qizarib ketdi.
- B. Shaxsiy g`arazlar bo`lmasagina, adabiyot yuksaladi.
- C. Agar tavakkalchilik bo`lmaganda, taraqqiyot ham bo`lmas edi.
- D. Saodat uyiga yetgan ham ediki, yomg`ir to`xtadi.

55. Aralash turdagi qo`shma gapni belgilang.

- A. Qayerda mehnat yaxshi tashkil qilingan bo`lsa, qayerda jamoa a`zolari o`rtasidagi munosabat yuqori saviyada bo`lsa, u yerda yashash ham zavqli bo`ladi.
- B. Halol kishi o`z yo`lida qoqilmaydi, chunki uning niyati ezgu, axloqi pok, maqsadi ulug`dir.
- C. Besh kun o`tgach, Go`ro`g`li kelmasa, holimiz nima kechadi?
- D. Oyoqlar ildam, ko`kraklar baland, boshlar mag`rur.

56. Bog`lovchisiz qo`shma gap berilgan qatorni aniqlang.

- A. Mehnat qilmasang, rohat yo`q.
- B. Xizmatkor undan haq talab qilganda, u biror bahona topadi.
- C. Orzigul darvozadan ichkari kirdi, darvoza o`z-o`zidan yopildi.
- D. Do`l bir zumda shunday jadaliga oldiki, yer oppoq bo`ldi.

57. Qor yog`di- don yog`di. Mazkur gap tuzilishiga ko`ra qanday gapq

- A. o`xshatish ergash gapli qo`shma gap.
- B. bog`langan qo`shma gap.
- C. sabab ergash gapli qo`shma gap.
- D. bog`lovchisiz qo`shma gap.

58. Payt ergash gapli qo`shma gap berilgan qatorni aniqlang.

- A. Paxta ochildimi, terimini boshlayveramiz.
- B. Odamlar borki, qolur ulardan yaxshi ot.
- C. Kuz keldi va dalalarda ishlar qizib ketdi.
- D. Begona yurtning podshosi bo`lguncha, o`z yurtning gadosi bo`l.

59. Dutor chalib o`tersam, tori uzilib ketdi. Ushbu gap.....

- A. shart ergash gapli qo`shma gap.
- B. sabab ergash gapli qo`shma gap.
- C. qiyos ergash gapli qo`shma gap.
- D. payt ergash gapli qo`shma gap.

60. Yordamchilarsiz bog`langan qo`shma gap qaysi qatorda berilgan.

- A. Baxt topilmas hech bir zamonda, el qul bo`lsa, bo`lsa yalong`och.
- B. Kim o`ylasa onalarini, vatanim deb kim mehnat qilsa, unda inson fazilati bor.
- C. Ergash unga shunday qaradiki, bu nazarni hamma payqadi.
- D. Yomg`ir yog`di, yerlar loy bo`ldi.

61. Payt ergash gapli qo`shma gap berilgan qatorni toping.

- A. Besh kun o`tgach, Go`ro`g`li kelmasa, unga nima deymizq
- B. Hosilimiz bo`lsa to`kin, to`ylarimiz to`xtamas.
- C. Qiz bola go`zal lola, yuzda hayosi bo`lsa.
- D. Bahor kelsa, sayrar bulbullar.

62. To`siqsiz ergash gapli qo`shma gap berilgan qatorni belgilang.

- A. Kimki o`z kelajagini o`ylasa, u yoshlik davrini bekor o`tgazmaydi.
- B. Sen berahm bo`lsang ham ammo, men dushmanlik qilmasman also.
- C. Uzoq yillar o`tar, lekin umrbod barcha aytganlaring ochmaydi dildan.
- D. Oramizda ayrim o`quvchilar borki, ular kitob o`qishga ahamiyat bermaydilar.

63. Baxtim borki, har narsa go`zal ko`rinadi kozimga. Ushbu gap.....

- A. natija ergash gapli qo`shma gap
- B. to`ldiruvchi ergash gapli qo`shma gap.
- C. sabab ergash gapli qo`shma gap.
- D. ega ergash gapli qo`shma gap.

64. Taqdirimiz birdir, go`zalim, gar o`rtada daryo bo`lsa ham. Ushbu gap.....

- A. natija ergash gapli qo`shma gap.
- B. sabab ergash gapli qo`shma gap.

- C. payt ergash gapli qo`shma gap.
- D. to`siqsiz ergash gapli qo`shma gap.

65. Biriktiruvchi bog`langan qo`shma gap berilgan qatorni ko`rsating.

- A. Haq yo`lida kim senga bir harf o`qitmish ranj ila, aylamak oson emas oning haqqin ming ganj ila.
- B. Chor atrofda esardi yeller va atrofda qushlar chiyillar.
- C. Lolalar uchun oftob yaxshidur, bolalar uchun odob yaxshidur.
- D. Seni bir dam tutmoqqa endi na haqqim born na huquqim bor.

66. Zidlov bog`lovchili qo`shma gap berilgan qatorni aniqlang.

- A. Hozirgi zamonda sichqon tutmaydigan mushuk ham odamga hunuk ko`rinadi.
- B. Boshqalarni bilmayman-u, suyak sho`rva kulala ikkovimizga zo`rlik qildi.
- C. Shunday inson haqida xabar keltirdimki, uning har bir so`zi bebaho gavhardir.
- D. Kimning ko`ngli to`g`rib o`lsa, uning yo`li ham to`g`rib o`ladi.

67. Yozuvchining mahorati shundaki, butun bahorni atigi chigitdek keladigan g`o`ra ichiga hamab bera oladi. Mazkur gap.....

- A. ega ergash gapli qo`shma gap.
- B. kesim ergash gapli qo`shma gap.
- C. sabab ergash gapli qo`shma gap.
- D. payt ergash gapli qo`shma gap.

68. Suhbatning oqibati shu bo`ldiki, Qalandarov tumanga qaytdi. Ushbu gap ergash gapli qo`shma gapning qaysi turiga mansub?

- A. ega ergash gapli qo`shma gap.
- B. natija ergash gapli qo`shma gap.
- C. kesim ergash gapli qo`shma gap.
- D. payt ergash gapli qo`shma gap.

69. Ergash gap bosh gapdagi voqea-hodisaning natijasini, xulosasini bildirgan ergash gapli qo`shma gapni aniqlang.

- A. Hasadning oqibati shundaki, yaxshilikni o`ziga ham ravo ko`rmay qoladi.
- B. Kimki tavba qilsa, tangri uni kechirar.
- C. Tun shu qadar oydin ediki, topilardi igna yo`qolsa.

D. Ayol istaydiki, yerda hayot so`nmasin sira.

70. Ayiruv bog`lovchi bog`langan qo`shma gapni aniqlang.

A. Uyatsizlik- hamma narsa uchun dog`, hayo hamma narsa uchun ziynatdir.

B. Men ishonamanki, sen bu ishni uddalaysan.

C. Ba`zan unga ko`nglim qushday uchadi, ba`zan yana cho`chinqirayman.

D. Hozir uning ko`ksi go hog`riyuvchi, goh yupantiruvchi kechinmalar bilan to`la edi.

71. Tarkibi ergash gapdan bosh gap tarkibida tuzilgan ergash gapli qo`shma gapni belgilang.

A. G`uncha guldari ham go`zalroq, chunki uning bag`rida ikki hayot- o`z hayoti va yana gul hayoti bor.

B. Farzandga otaning mehri ketmon bo`yi bo`lsa, onaning mehri osmon bo`yi bo`ladi.

C. Bulbul chunon xonish boshladiki, badan jimirlaydi.

D. U kuyladi mag`rur, qiz bo`lsa, shu vaqt keldi huzuriga egib boshini.

72. Voqea-hodisalarning o`zaro zidlanishi mazmunini ifodalagan bog`langan qo`shma gap berilgan qatorni toping.

A. Bu odam to`nkarilib qolgan to`ng`izga o`xshaydi: o`nglab qo`yadiganlarning qo`lini sasitadi.

B. Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o`tin yorishga sarflash kerak emas.

C. Ba`zi so`zlarda sehr bo`ladi, ba`zi she`rlarda hikmat bo`ladi.

D. Xitoyga borib bo`lsada, ilm istangiz.

73. Bosh gap + ergash gap + bosh gap tarkibida tuzilgan ergash gapli qo`shma gap berilgan qatorni aniqlang.

A. Lolalar shu qadar lovillab turardiki, bekatdagilarning hammasi havas qilardi.

B. Gul suvsiz, quyoshsiz so`lganidek, odam ham shodliksiz so`nadi.

C. Mushukni osmondan tashlab yuborsang, oyog`i bilan tushadi.

D. Dam jahlim chiqadi, dam kulgim keladi.

74. Kimki uni davolasa, shu lahza, shu chog`, qirolimiz berajakdir, bir sandiq oltin. Mazkur gap ergash gapli qo`shma gapning qaysi turiga mansub?

A. part ergash gapli qo`shma gap.

B. ega ergash gapli qo`shma gap.

C. kesim ergash gapli qo`shma gap.

D. to`ldiruvchi ergash gapli qo`shma gap.

75. Bahodir deb atagin meni: Hijroningga berdim-ku bardosh. Ushbu qo`shma gapning ikkinchi qismi qanday mazmunni ifoda etgan?

- A. Ta`kidni
- B. ketma-ketlikni
- C. hayqiriqni
- D. dastlabki qismning sababini

76. Po`latjon endi tashqariga chiqmoqchi bo`lib turgan edi, Hojimat keldi. Berilgan gapning turini aniqlang.

- A. bog`lovchisiz qo`shma gap
- B. payt ergash gapli qo`shma gap.
- C. o`rin ergash gapli qo`shma gap.
- D. ega ergash gapli qo`shma gap.

77. Har kimki vafo qilsa, vafo topg`usidur. Ushbu gap

- A. shart ergash gapli qo`shma gap.
- B. ega ergash gapli qo`shma gap.
- C. natija ergash gapli qo`shma gap.
- D. kesim ergash gapli qo`shma gap.

78. Makrlar kitobin har kim qilsa foj, uni olqishlaydi butun koinot.

Ushbu gap.....

- A. shart ergash gapli qo`shma gap.
- B. kesim ergash gapli qo`shma gap.
- C. to`ldiruvchi ergash gapli qo`shma gap.
- D. to`siqsiz ergash gapli qo`shma gap.

79. Yomg`ir sharros quysa-da, bolalar o`yinni davom ettirar edilar. Ergash gapning turini aniqlang.

- A. payt ergash gap
- B. shart ergash gap
- C. sabab ergash gap
- D. to`siqsiz ergash gap

80. Qaysi qatordagi savolga aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap bilan javob berish mumkin?

- A. Siz nimaga ishonasizq
- B. Kimni hamisha qo'llab quvvatlaydi.
- C. Biz qanday davrda yashayapmizq
- D. Qayerda tinchlik barqaror bo'ladi.

81. Qo'shma gap berilgan qatorni aniqlang.

- A. Otabek otasiga bir qarab oldi-da, javob bermadi.
- B. Ammo eshik yanayam katta ochildi shekilli, uning ko'ziga chiroq nuri tushdi.
- C. Shezod kechqurun kasalxona hovlisini aylanib, palataga qaytdi-yu, o'zining karovatida o'tirgan yigitga ko'zi tushdi.
- D. U ko'zlarini chirt yumdi-da, tashqarida uvillayotgan shamolga quloq soldi.

82. Bog'langan qo'shma gap berilgan qatorni aniqlang.

- A. Og'ir eshik unsiz ochildi-da, qop-qorong'i zalga nur yopirilib kirdi.
- B. Keyin bir lahza ko'zlarini yumdi-da, yuziga kaftini bosdi.
- C. Zuhra oynavand eshikni ochdi-da ichkariga kirib ketdi.
- D. Bir kelib qolibsan-da, o'tir, do'stim.

83. Hovlida bemorlar sayr qilib yurishgan bo'lsa kerak, ularning gangir-gungur gapirishlari eshitaladi. Ushbu gap ergash gapli qo'shma gapning qaysi turiga mansub?

- A. shart ergash gapli qo'shma gap.
- B. sabab ergash gapli qo'shma gap.
- C. maqsad ergash gapli qo'shma gap.
- D. kesim ergash gapli qo'shma gap.

84. Quyidagilarning qaysi biri qo'shma gap emas?

- A. Uyi juda sovuq edi, egnimda yupqa nimcha.
- B. Birniki- mingga, mingniki- tumanga.
- C. Bular-hasratda, men-rohatda.
- D. Eshikni sekin ochib, Dilbar kirib keldi.

85. Omborchi-erkak, ferma mudiri-erkak, do`kon mudiri-erkak. Yuqoridagi gap tuzilishiga ko`ra qanday gap?

- A. ergash gapli qo`shma gap.
- B. bog`lovchisiz qo`shma gap
- C. bog`langan qo`shma gap
- D. yoyiq sodda gap

86. Ko`nglingizga kelmasin-ku, odam har xil bo`larkan. Yuqoridagi gap qanday gap.

- A. kesim ergash gapli qo`shma gap.
- B. ega ergash gapli qo`shma gap.
- C. to`ldiruvchi ergash gapli qo`shma gap.
- D. sabab ergash gapli qo`shma gap.

87. Berilgan gaplar ichidan shart ergash gapli qo`shma gapni aniqlang.

- 1. Qari kelsa-oshga, yosh kelsa ishga.
 - 2. Hamma kelsa mayli.
 - 3. Gulni gul dermu kishi, gulning tikoni bo`lmasa.
 - 4. Bir narsa desin-chi, boshidan tegirmon yurgizaman.
 - 5. Yangi yerlar ochilib, ko`p odam ko`chib ketdi.
- A. 1; 3; 4;
 - B. 1; 2; 3; 4;
 - C. 1; 2; 5;
 - D. 1;

88. Ma'lumki, osmon uzilib, yerga tushmaydi. Ushbu gap ergash gapli qo`shma gapning qaysi turiga mansub?

- A. kesim ergash gapli qo`shma gap.
- B. ega ergash gapli qo`shma gap.
- C. to`ldiruvchi ergash gapli qo`shma gap.
- D. ravish ergash gapli qo`shma gap.

89. Ishi o`ngidan kelmasdan, idoradan so'zsiz chiqib ketdi. Ushbu gap ergash gapli qo`shma gapning qaysi turiga mansub?

- A. To'siqsiz ergash gapli qo`shma gap.
- B. Shart ergash gapli qo`shma gap.

- C. Ravish ergash gapli qo`shma gap.
- D. Sabab ergash gapli qo`shma gap.

-

90. Bu uy avval bedaxona bo'lganidan, darchasi ham yo'q edi. Ushbu gap ergash gapli qo`shma gapning qaysi turiga mansub?

- A. Sabab ergash gapli qo`shma gap.
- B. Ravish ergash gapli qo`shma gap.
- C. Shart ergash gapli qo`shma gap.
- D. Qiyos ergash gapli qo`shma gap.

91. Oftob tovlanib turgani holda, yomg'ir yog'moqda edi. Ushbu gap ergash gapli qo`shma gapning qaysi turiga mansub?

- A. Ravish ergash gapli qo`shma gap.
- B. To'siqsiz ergash gapli qo`shma gap.
- C. Kesim ergash gapli qo`shma gap.
- D. Aniqllovchi ergash gapli qo`shma gap.

92. Quyidagi qaysi gap shart ergash gapli qo`shma gap hisoblanadi?

- A. Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir
- B. Uyda chivin uchsa, bilinadi.
- S. Men bor ekanman, xotirjam bo'ling
- D. Yer tagida ilon qimirlasa, bilaman

93. Nimaiki qo'liga tushsa, bari uni qiziqtiradi. Ushbu gap ergash gapli qo`shma gapning qaysi turiga mansub?

- A. Kesim ergash gapli qo`shma gap.
- B. Aniqllovchi ergash gapli qo`shma gap.
- C. Shart ergash gapli qo`shma gap.
- D. Ega ergash gapli qo`shma gap.

94. Sabab ergash gapli qo`shma gap berilagan qatorni belgilang.

1. Fabrikaning mollari hamma yoqni to'ldirib, kosiblarning bozori kasod bo'ldi.
2. Bola, bir narsa chaqib oldimi, birdan engashib qoldi.
3. Bir narsasi bordirki, do'q qiladi.

- A. 1
- B. 2
- S 3
- D 1,2,3.

95. Poyezdga biletim bo'la turib, jo'namadim. Ushbu gap ergash gapli qo'shma gapning qaysi turiga mansub?

- A. Ravish ergash gapli qo'shma gap.
- B. Shart ergash gapli qo'shma gap.
- C. To'siqsiz ergash gapli qo'shma gap.
- D. Sabab ergash gapli qo'shma gap.

96. Har qancha sitamgar bo'lmasin hijron, Hasratga oshno aylama tilni. Ushbu gap ergash gapli qo'shma gapning qaysi turiga mansub?

- A. To'siqsiz ergash gapli qo'shma gap.
- B. Sabab ergash gapli qo'shma gap.
- C. Shart ergash gapli qo'shma gap.
- D. Maqsad ergash gapli qo'shma gap.

97. Payt ergash gapning bosh gapga sifatdoshdan keyin to'liqsiz fe'lni keltirish bilan bog'langanini ko'rsating.

- A. Xizmatchi dasturxonni yig'ishtirgandan, so'ng shahzodaning yigitlaridan biri kirdi.
- B. Bashar opa o'rnidan turguncha, darvozada eski quloqchin kiygan bobom ko'rindi.
- S. Ustunlari sirlangan baland ayvon tomon yurgan edim, ichkaridan go'dak yig'isi eshitildi.
- D. Kunbotar paytda uyga kirsam, xotinlar tarqalib bo'libdi.

98. Yordam shundan iboratki, seni boshliq bilan uchrashtirib qo'yaman. Ushbu gap ergash gapli qo'shma gapning qaysi turiga mansub?

- A. Ega ergash gapli qo'shma gap.
- B. Kesim ergash gapli qo'shma gap.
- C. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap.
- D. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap.

99. Ega ergash gapli qo'shma gapni ko'rsating.

- A. Shunisi ayonki, kitobsiz inson hayoti bo'm-bo'sh
- B. Foydasi shuki, odamlar adolat borligiga ishonishadi.
- S. Shoirning tovushi shunday qahrli ediki, navkarlar qo'rqqanlaridan duduqlanib qolishdi.

D. G`amga bir kishi chidashi mumkin, lekin quvonchni ikki kishi baham ko`rishi kerak.

100. Ayiruv munosabatli bog`langan qo`shma gapni aniqlang.

A. Nog`orachilar va chirmandakashlar goh qiyshayib, goh keskin silkinib chaladilar.

B. Goh derazaga olov urilgandek bo`ladi, goh tunuka tom ustida nimalardir dahshat bilan yurayotgandek tuyuladi.

S. Hamma yoq suv quygandek jim-jit, faqat allaqayerda chumchuq chirqillardi.

D. Navoiy goh otda, goh piyoda paydo bo`lar edi.